

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____ S.T.Ikromov

Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi Berdiyeva Iroda Xudoyshukurovnaning *“O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning madaniyat va san‘at masalalariga oid qarashlari”* mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

f.f.d. _____ S.S.To‘ychiyeva
Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil
etish hamda boshqarish kafedrası

Taqrizchi

_____ V.O‘rozmatov
“Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini
tshkil etish ilmiy metodik
markazi o‘rinbosari

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil
etish hamda boshqarish kafedrası mudiri

_____ B.SH.Salaydinov

2019-yil “ ___ ” _____

Toshkent – 2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ADABIYOT VA SAN’AT, MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH – XALQIMIZ MA’NAVIY OLAMINI YUKSALTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR	
1.1 O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3-avgust kuni ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvidagi qo`yilgan vazifalar xususida.....	8
1.2 2017-2021 yillarga mo`ljallangan Harakatlar strategiyasida madaniyat va san`at masalalariga berilgan e`tibor.....	45
II BOB. O`ZBEKISTONDA MILLIY MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING DOLZARBLIK AHAMIYATI	
2.1 Ma`naviy qadriyatlarni asrab avaylash, jahon madaniyati bilan uyg`un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ`ib etish masalalari.....	48
2.2 Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ularning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo`yicha beshta muhim tashabbus.....	52
XULOSA	64
GLOSSARIY	68
FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR	69

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, insonlarning ma'naviyatini oshirish, ularga ma'naviy ozuqa berish, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash borasida keng ko'lamlı islohatlar amalga oshirilmoqda. O'z yurti, oilasi, kasbini sevish orqali insonlarga naf keltirish, yosh avlodni bilimlı, ma'rifatlı, har tomonlama yetuk va komil inson qilib tarbiyalash, ularning turmush madaniyatini yaxshilash singari ezgu maqsadlarga qaratilgan juda ko'p qaror, farmon, farmoyish va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qator-qator dasturlarning asosiy mohiyati ham ana shunday ulkan maqsadlarga yo'naltirilgan.

2017-yil 7-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-4947-sonlı Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakterlar strategiyasining qabul qilinganligi, san'at va madaniyat sohasiga doir 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish" konsepsiyasini ishlab chiqilganligi madaniyat va san'at sohasi rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Boisi, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosida xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilanganligidadir.

So'nggi yillarda madaniyat va san'at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san'at muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, madaniyat va san'at muassasalari binolarini qurish va ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlarini obodonlashtirish, aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish borasidagi ishlar talab darajasida emas.

Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tashabbusi bilan Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish, ushbu sohadagi muassasalar tarmog`ini kengaytirish va ularning moddiy-texnik ahvolini mustahkamlash, aholiga sifatli xizmatlar ko`rsatishni tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, "O`zbekkino" Milliy agentligi, Moliya vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko`maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo`mitasi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikning quyidagi shakllarini joriy etish to`g`risidagi takliflariga rozilik berildi va quyidagi vazifalar belgilandi:

➤ madaniyat va san'at yo`nalishidagi nodavlat muassasalarining binolarini qurish uchun bepul asosda doimiy foydalanishga yer uchastkalari ajratish;

➤ mavjud davlat madaniyat va san'at muassasalari binolarini rekonstruksiya qilish va jihozlash, keyinchalik esa ularni otaliqqa olish sharti bilan madaniyat va san'at yo`nalishidagi nodavlat muassasalari ob'ektlarini qurish uchun bepul asosda yer uchastkalarini taqdim etish;

➤ konsepsiya asosida qurilish uchun yer uchastkasi yoki rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun bino ajratish;

➤ bo`sh turgan davlat mulki ob'ektlarini, shu jumladan, faoliyat ko`rsatmayotgan davlat madaniyat va san'at muassasalarining binolarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "nol" xarid qiymatida sotish;

➤ davlat madaniyat va san'at muassasalarining foydalanilmayotgan binolarini (*yoki ularning bir qismini*) ijara haqining "nol" stavkasida maqsadli foydalanish uchun xususiy sheriklarga berish;

➤ xususiy sherikning mol-mulki negizida tashkil qilingan madaniyat va san'at nodavlat muassasalarini moddiy-texnik, moliyaviy va metodik ta'minlash;

➤ otaliq shaklidagi xayriya faoliyatini olib borish singari muhim vazifalar belgilandi va amaliyotga joriy etilmoqda.

Bundan tashqari, madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkinligi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Unga ko'ra: Davlat-xususiy sheriklik shakliga qarab xususiy sherikka quyidagi investisiya majburiyatlari yuklanishi mumkinligi belgilab qo'yilsin:



O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamlı bo'lib, dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini yuksak darajada rivojlantirish yo'lida qabul qilinayotgan qaror va farmonlari ijrosini eng chekka hududlarda ham amaliy ijrosini ta'minlash va amaliyotga tadbiq etish monitoringini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-avgustda belgilangan vazifalarni o'rganish;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tuzilgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida madaniyat va san'at masalalarida belgilangan chora-tadbirlarni o'rganish;
3. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirish omili ekanligini o'rganish;
4. O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini o'rganish;
5. Xalqimizning yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'unligini o'rganish;
6. Milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini o'rganish;
7. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalarning ijrosini o'rganish;

Tadqiqotning ob'yekti: Madaniyat va san'at muassasalari va mahallalar


Tadqiqotning predmeti: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qonun, qaror, farmon va farmoyishlardagi kelib chiqadigan tashkiliy boshqaruv masalalaridagi munosabatlarni o'rganish

Tadqiqotning metodlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari, mazmunli tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil kabilar tadqiqotning metodlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: 2018 yilning 28 noyabrdagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O`zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi” ijrosini ta`minlash maqsadida O`zbekiston davlat san`at va madaniyat instituti hamda Mirzo ulugbek tumanidagi “Katta yalang`och ota” hamda “Bahor” mahalla fuqarolar yig`inlari hamkorligida “O`quvchilarning mahallalarda faolligini oshirish ular o`rtasida ijtimoiy-madaniyatni rivojlantirish va ma`naviyatini yuksaltirish” bo`yicha bepul to`garaklar tashkil etildi. Ushbu to`garaklar aholi o`rtasida ijtimoiy-madaniy masalalarni rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlari qondirish va bo`sh vaqtlari mazmunli o`tkazishga ko`maklashish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san`atini saqlab qolish va rivojlantirish, xorijiy tillarni o`rganish kabi ko`plab vazifalarni o`z oldiga maqsad qilib belgilab olgan. Mahalla fuqarolari yig`inlarida hali bunday ish tahkil etilmaganligi bois, ushbu loyihani bemalol yangilik deb aytish mumkin.

TADQIQOT ISHINING STRUKTURAVIY TUZILISHI:



I BOB. ADABIYOT VA SAN'AT, MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH – XALQIMIZ MA'NAVIY OLAMINI YUKSALTIRISHNING MUSTAHKAM POYDEVORIDIR

1.1 *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalari hamda ularning hal etish yo'llari*

“Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 3 avgust kuni O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashgan edilar. Uchrashuvda Prezidentimiz qat'iyat bilan “Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi”, deb ta'kidlagan so'zlari bugun ham yaratish, ham yashnatish ishtiyoqi bilan buyuk manzillarni ko'zlagan holda, ezgu g'oyalar yo'lidan dadil odimlab borayotgan yoshlarning allaqachon shioriga aylanib ulgurdi deb qat'iy ishonch bilan aytaolaman. [1]

Prezidentimiz ijodkorlarga yuzlanib: Bugun mana shu muhtasham saroyda siz, azizlar bilan – milliy madaniyatimizning ko'zga ko'ringan namoyandalari, atoqli shoir va adiblarimiz, teatr, kino, musiqa san'ati sohasining taniqli hamda yosh vakillari bilan, san'atshunos olimlar, jurnalistlar bilan uchrashib turganimdan benihoya xursand ekanligini ta'kidladilar. Inson qalbini, uning dardu tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlari, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg`usini betakror so`z, ohang va ranglarda tarannum etishni o`z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz, muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda “Milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalari” mavzusidagi so'zlagan nutqi

ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Men sizlarning ko`pchiligingizni uzoq yillardan buyon yaqindan taniyman, asarlaringizni o`qiganman, sizlar yaratgan kuy-qo`shiqlarni, kartinalar, film va spektakllarni doimo katta qiziqish bilan tinglab, tomosha qilib kelaman. Bir so`z bilan aytganda, adabiyot va san`atning chinakam muxlisi bo`lish nasib etganidan baxtiyorman, deya o`z so`zlarini mamnuniyat bilan davom ettirdilar. Demoqchimanki, biz hammamiz bir-birimizni yaxshi bilamiz, mashhur bir qo`shiqda aytilganidek, "o`rtada begona yo`q". Shu sababli ham bugungi uchrashuvimizni, agar sizlar rozi bo`lsalaringiz, mana shunday samimiy va ochiq muloqot ruhida o`tkazsak, madaniyatimiz va san`atimizning rivojlanish jarayonlarini xolisona va tanqidiy baholab, bu borada o`z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish haqida atroflicha fikrlashib, bamaslahat bir qarorga kelsak, ayni muddao bo`lardi.

Barchamiz yaxshi xabardorsiz, mamlakatimizda mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov rahbarligida amalga oshirilgan keng ko`lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, tinchlik va osoyishtalikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini ta`minlash yo`lida muhim poydevor bo`ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro`yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda, bugungi globallashuv davrida jahon miqiyosida chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda, biz mamlakatimiz bosib o`tgan taraqqiyot yo`lini har tomonlama tahlil qilib, davlatimizni barqaror va jadal sur`atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqildi. Ushbu Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta`minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglikni

ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olgan. Mana shu Strategiyaga muvofiq, barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari ravnaqini yangi bosqichga ko'tarishni biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu borada olib borilayotgan amaliy harakatlar o'zining ijobiy natijasini berib kelmoqda.

Ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish maqsadida keyingi paytda bir qancha muhim hujjatlar, jumladan, kitobxonlik madaniyatini oshirish, madaniyat va san'at sohasini takomillashtirish, hududlarda ulug' san'atkorlarimiz nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risidagi qaror va farmoyishlar ham qabul qilindi. Bu haqida gapirganda, Toshkent shahrida Adiblar xiyoboni bunyod etilayotgani, u yerda adabiyotimizning buyuk namoyandalariga bag'ishlab yodgorlik majmualari o'rnatilayotgani, shuningdek, Namangan viloyatida ulkan ma'rifatparvar Ibrat domla, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar Hamid Olimjon, Zulfiya va Sharof Rashidov, Xorazm viloyatida otashnafas hofiz Komiljon Otaniyozov, Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Ibroyim Yusupov, Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf xotiralarini abadiylashtirish ishlari olib borilib maktablar va turli yodgorlik majmualari qad rostlaganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlash joizdir.

Poytaxtimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan "Adiblar hiyoboni" ijodkor ahli uchun ilhom manbayi bo'lib, uni sayr etish jarayonida men o'ylaymanki, har bir o'zbek ko'ksida yuksak g'urur va iftixor tuyg'ulari barq urishi tabiiy. Boisi, ushbu hiyobonda bizni kuzatib turgan adabiyotimizning zabardast vakillari bizga ulkan muvaffaqiyatlar tilab turgandek, yurtimizdagi mustaqillik, hurlik uchun yaratganga shukronalar keltirayotgandek tuyiladi menga. Adabiyot sohasi haqida gap ketganda yurtimizning turli hududlarida yashab, she'r va hikoyalar mashq qilib kelayotgan, adabiyot ostonasiga o'zining ilk qadamlarini qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimiz minglab topiladi. Bugun boshlovchi misralar yozib, tahririyatga yoki ustoz adiblar

qoshiga iymonibgina borayotgan bu yigit-qizlar ertangi kunimizning taniqli yozuvchi va shoirlariga aylansa, ajab emas. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolasida "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak"[²] degan fikr asosiy maqsad-muddaolardan biri sifatida alohida ta'kidlangani bejiz emas. Bugun barcha g'amxo'rlik va e'tibor ana shu maqsad ro'yobiga qaratilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikga erishgan dastlabki kunlardanoq yoshlar siyosati eng birlamchi masalalardan biriga aylandi. Mana yigirma olti yildirki, ushbu muhim masala kun tartibidan tushgani yo`q. Aksincha, yildan yilga yoshlar qatlamiga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu ma'noda, o'tkir didli, badiiy saviyasi yuksak yosh ijodkorlarni tarbiyalash uchun yaratilgan bugungi shart-sharoitlarni hech bir davr bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ana shunday yuksak e'tibor samarasi o'laroq, 2010-yilda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va "Ijod" jamoat fondi tomonidan bir guruh yosh ijodkorlarning ilk kitoblari nashr etilgani va barcha ta'lim muassasalariga bepul tarqatilganligidan barchamiz yaxshi xabardormiz. Ezgu an'anaga aylanib ulgurgan "Birinchi kitobim" loyihasi doirasida har yili ko'plab yangi iste'dod egalari kashf etilyotganligi quvonarlidir. Bizning oliygohimizdan ham ko'plab ijodkorlar ushbu baxtga musharraf bo'lishgan.

Adabiyot sohasiga oid ishlarning mantiqiy davomi sifatida yosh shoir va adiblar, aktyor, rassom va qo'shiqchilar, jurnalistlarning iste'dodini yuzaga chiqarish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz uchrashuvda "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini

² I.A.Karimov "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risola. Toshkent 2014

unutishga bizning aslo haqqimiz yo`q. Lekin tabiiy bir savol tug`iladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan bugungi keng ko`lamli islohotlar, yangilanish va o`zgarishlar jarayonida ijodkor ziyolilarimizning o`rni va hissasi qanday bo`lmoqda?” deya ijodkorlarga savol bilan yuzlandilar. Albatta, biz xalqimizning ma’naviy kamol topishida madaniyat namoyandalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e’tirof etamiz. Yuksak ideallar yo`lida fidoyilik ko`rsatib yashash, o`zligimizni anglash, g`urur va iftixor, milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun bel bog`lab maydonga chiqish – siz, ijod ahliga xos ezgu fazilat ekanini hammamiz yaxshi bilamiz va buni yuksak qadrlaymiz. Lekin, qo`limizni ko`ksimizga qo`yib xolisona aytaylik: ijodkor ziyolilarimizning bugungi faoliyati jamiyatimizni, eng avvalo, el-yurt taqdiri uchun doimo kuyunib, yonib yashaydigan, bedor qalb egalari bo`lgan sizlarning o`zingizni qoniqtiradimi?

O`ylaymanki, hozirgi kunda madaniyat va san’at ahliga faollik, yangi-yangi ijodiy g`oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi yetishmayotganini o`zlaringiz ham his qilib turibsiz. Yurtimizdagi bugungi ijodiy muhitni kuzatsak, u qandaydir turg`unlikka tushib, bir joyda deysinib turganday, ko`pchilik ijodkorlarimiz o`z tashvish va muammolari bilan o`ralashib qolganday taassurot qoldiradi. Holbuki, madaniyat va san’at arboblari hamisha jamiyatning eng oldingi saflarida bo`lishi, o`z asarlari, faol grajdanlik pozitsiyasi bilan odamlarni ezgu maqsad va marralar sari boshlashi, ilhomlantirishi kerak emasmi?

Azal-azaldan xalq ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qarashi sizlarga yaxshi ma’lum. Ruscha ibora bilan aytganda, ularga “vlastiteli dum”, ya’ni “jamiyat tafakkurining egalari” degan yuksak baho berib kelinishi albatta bejiz emas. Chunki, sizlarga Yaratganning o`zi shunday noyob iste’dod va salohiyat ato etganki, bunday xususiyat, bunday fazilat har kimga ham nasib etmaydi. Adabiyot va san’atning naqadar qudratli kuchga ega ekani haqida sizdek zukko insonlar huzurida so`z yuritishga, ochig`ini aytsam, men biroz tortinaman. Lekin mana shunday buyuk, ilohiy kuchdan biz mamlakatimiz, el-yurtimiz ravnaqi yo`lida oqilona va samarali foydalanyapmizmi? Yoki ulug` adibimiz Abdulla Qahhor

aytganidek, atomning kuchini o`tin yorishga sarflayapmizmi? Albatta, san`atkorlarimiz o`rtasida xalqimiz oldidagi ma`naviy va ijtimoiy burchini, farzandlik qarzini chuqur anglab, o`zini ayamadan mehnat qilayotgan, jamiyatimizning oldingi saflarida bo`lib kelayotgan insonlar oz emas.

Zamon bilan hamnafas ijod qilib, boshqalarga o`rnak va namuna ko`rsatayotgan fidoyi, faol ziyolilarimizning aksariyat qismini bugungi davramizda ko`rish shaxsan menga katta xursandchilik bag`ishlaydi. Ularning ijodiy izlanish va yutuqlari, xususan, O`zbekistonning bugungi hayotiga bag`ishlangan sermazmun asarlari haqida uzoq gapirish mumkin va buning uchun biz ulardan minnatdormiz. Lekin, bunday asarlar asosan shoir yoki adib, rassom yoki rejissyor, bastakorning shaxsiy tashabbusi bilan yaratilayotgani sir emas. Ularning dunyoga kelishida ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirib, san`at ahlini har tomonlama qo`llab-quvvatlab, haqiqiy tayanch va suyanch bo`lishi zarur bo`lgan ijodiy uyushmalarimiz va davlat idoralarining o`rni va ta`siri yetarlicha sezilmayapti. Ijodiy tashkilotlarimiz shiddat bilan o`zgarayotgan zamonga hamqadam bo`lib yashash, o`z faoliyatini samarali tashkil etishda davr talablaridan orqada qolmoqda.

Ushbu uchrshuv jarayonida Prezidentimiz tomonidan ushbu sohalar faoliyatiga doir kamchiliklar va ularga qanday yechim topish hususida ham qat`iy fikr-mulohazalar bayon etildi:

Aslida ular nafaqat bugungi kun, balki kelajakni ko`zlab ish tutishi, shu asosda puxta o`yangan, mustahkam rejalarini tuzishi kerak emasmi? Deylik, 15-20 yildan keyin O`zbekistonning madaniy rivojlanishi qanday kechadi, bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san`at, madaniyatimizning o`rni va ta`sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to`g`ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg`or vakillari bo`lgan ijod ahlini o`ylantirishi zarur emasmi?

Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, ijodiy uyushmalarning bugungi faoliyatida tadbirbozlik, shunchaki xo`jako`rsinga ishlash, sustkashlik va loqaydlik

kayfiyatlari tobora yaqqol ko`zga tashlanmoqda. Ijodiy tashkilotlar rahbarlarining aksariyati faqat yuqoridan buyruq kutib ishlashga o`rganib qolgani, ularning faoliyatida umumiy maqsad uchun jon kuydirish, tashabbus va tashkilotchilik sezilmayotgani albatta achinarli hol. Prezidentimiz ushbu uchrashuvga tayyorgarlik ko`rish jarayonida ijodiy tashkilotlarimizning Nizomlari bilan tanishib chiqqanligi va bugun biz qo`yayotgan savollar, dolzarb vazifalarni amalga oshirish aslida bu tuzilmalarning Nizomlarida aniq belgilab qo`yilgan ekanligi ta`kidladilar. Demak, ijodiy tashkilotlarimiz o`z faoliyatining poydevorini tashkil etadigan asosiy hujjat – Nizom talablariga amal qilmayapti, desak, to`g`ri bo`ladi.

Misol uchun, O`zbekiston Badiiy akademiyasi, Bastakorlar uyushmasi kabi tashkilotlarda ana shu talablarga e`tibor qilmaslik, xususan, syezd va saylovlarni o`z vaqtida o`tkazmaslik holatlari ham shundan dalolat beradi. Bastakorlar uyushmasining qurultoyi 1995 yildan so`ng – oradan o`n yildan ortiq vaqt o`tib, nihoyat 2014 yilda, shunda ham yuqori tashkilotlarning talabi bilan o`tkazilganini qanday baholash mumkin? Holbuki, bugungi kunda barcha davlat va nodavlat tashkilotlar uchun xalq bilan doimiy muloqot qilish, xalq oldida hisobot berish eng asosiy talab sifatida qo`yilmoqda.

Yoki biz bir paytlar katta umid bilan tashkil etgan Badiiy akademiya faoliyatini oladigan bo`lsak, bu yerda 2003 yildan buyon saylov o`tkazilmaganini qanday izohlash mumkin? Hozirgi vaqtda akademiya 10 ta haqiqiy a`zolik o`rni bo`shab qolgani holda, nega yangi saylov o`tkazilmayotganini tushunish qiyin. Bu albatta mazkur uyushmalarda mas`uliyat tuyg`usi, ishchanlik va ijodiy muhit yo`qolib borayotganining natijasidir.

Ayni paytda, adabiy-badiiy jarayonlarda ko`zga tashlanayotgan salbiy tendensiyalar, xususan, madaniyat sohasida tijoratlashuv, shaxsiy manfaatning birinchi o`ringa chiqayotgani, g`oyaviy-badiiy jihatdan sayoz asarlarning bozori chaqqon bo`lib borayotgani tashvish uyg`otmasdan qolmaydi. Afsuski, ijodiy uyushmalar tomonidan bunday holatlarga prinsipial baho berilmayapti, ularni

bartaraf etish bo'yicha har tomonlama asoslangan amaliy takliflar o'rtaga qo'yilmayapti.

Nima uchun madaniy hayotimizda tanqidiy ruh sezilmaydi? Sog'lom tanqid, bahs va tortishuv bo'lmagan joyda chinakam ijod bo'lishi mumkinmi o'zi? Bu borada Madaniyat vazirligi, "O'zbekkino" agentligi, Bastakorlar uyushmasi, "O'zbekkonsert" va boshqa ijodiy tashkilotlar qoshidagi badiiy kengashlarning faoliyati deyarli sezilmayapti.

Yaratilayotgan asarlar, film va spektakllar, ko'rgazma va konsert dasturlariga prinsipial va malakali baho berish, matbuotda xolis va haqqoniy retsenziyalar, xulosalar bildirish tobora kamyob hodisaga aylanib bormoqda.

Yana bir tashvishli holat – ijodiy uyushmalar o'rtasida hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Badiiy akademiya, Bastakorlar, Yozuvchilar, Jurnalistlar, Kino arboblari uyushmalari va boshqa tashkilotlarning o'zaro ijodiy munosabatlari deyarli to'xtab qolgan, ularning har biri o'z yog'iga o'zi qovrilib yotibdi. Vaholanki, ushbu tuzilmalar faoliyatida birgalikda hal etilishi lozim bo'lgan ko'plab ijodiy va ijtimoiy muammolar to'planib qolgan.

Bu haqida gapirganda, avvalambor, adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha mavjud huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, sohaning moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash, ijod ahlining mashaqqatli mehnatini moddiy va ma'naviy jihatdan munosib rag'batlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va isloh qilish kabi bir-biridan muhim va dolzarb masalalar ijodiy uyushmalar e'tiboridan chetda qolib kelayotganini ta'kidlash lozim. Bugungi kunda ziyolilar davrasida yengil-yelpi kitoblar, sayoz, oldi-qochdi gazeta-jurnallar, tele-radio stansiyalar ko'payib borayotgani to'g'risida haqli e'tirozlarni eshitish mumkin. Hozirgi paytda yurtimizda turli mulk shakliga ega bo'lgan 1513 ta ommaviy axborot vositasi, shuningdek, 122 ta nashriyot faoliyat olib bormoqda. Ammo ularning barchasi ham bizning milliy g'oyamizni rivojlantirish, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilyaptimi, degan savol ko'ndalang turibdi. Xususi nashriyotlarning

ko'pchiligi bir vaqtlar viloyatlarda ham nashriyotlar bo'lsin, degan noto'g'ri yondashuv bilan tashkil etilgani, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati nihoyatda nochor ekani kitob degan mo'tabar tushunchaning qadrini tushirishga olib kelayotgani hech kimga sir emas. Lekin bu muammoni qonuniy asosda qanday hal qilish mumkinligi haqida amaliy takliflar deyarli uchramaydi. Boshqalarga qanday, bilmadim-u, ammo mening nazarimda, bunday salbiy holatning bosh sababi mamlakatimiz axborot bozorining tartibga solinmagani bilan bog'liq. Bu borada son emas, sifat va samara muhim. Mayli, nashriyotlar soni 122 ta bo'lmasin, ozroq bo'lsin, lekin talabga javob beradigan bo'lsin. Biz bugun kitobxonlik madaniyatini oshirish, ilmiy, badiiy, siyosiy adabiyotlarni ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor beryapmiz. Ammo bu ishlarni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirishimiz, boshlagan olijanob harakatimizni obro'sizlantirishga yo'l qo'ymasligimiz shart. Afsuski, matbuot va axborot sohasida davlat siyosatini amalga oshirishda vakolatli va mas'ul organ vazifasini bajarishi kerak bo'lgan O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi bu borada faqat kuzatuvchi bo'lib o'tiribdi. Shuning uchun yaqinda Matbuot va axborot agentligiga yangi rahbar tayinlandi. Shu bilan birga, ushbu tashkilot faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha Prezident qarori tayyorlanmoqda. Bunday bunyodkorlik ishlari, men o'ylaymanki, har qanday ijodkor uchun ilhom manbai bo'lib, yangi asarlar uchun mavzu bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zamonamizning haqiqiy qahramonlari bo'lgan mana shunday quruvchi va muhandislar, dala zahmatkashlari haqida, jonkuyar muallim va shifokorlarimiz, jasur harbiylarimiz, navqiron yoshlarimiz erishayotgan yutuq va marralar haqida sizlar yozmasangiz, Vatanimiz tarixining badiiy solnomasini sizlar yaratmasangiz, kim yaratadi? Agar biz iste'dod va mahoratimizni shu muqaddas zamin, shu olijanob xalqimiz uchun safarbar etmasak, hazrat Navoiy aytmoqchi, bu hunarni asrab nima qilamiz, qayerga opketamiz uni?

Necha yillardan beri o'z yechimini kutib yotgan masala – zamonaviy qahramon obrazini yaratish hususida birorta jiddiy natijaga erisha

olmayotganligimiz ham ushbu yig'ilishda ta'kidlandi. Albatta, bu borada qandaydir intilish va harakatlar ko'zga tashlanayotganini, badiiy va publitsistik asarlar, pyesa va kinolentalar paydo bo'layotganini inkor etib bo'lmaydi. Ammo ularning ko'pchiligi yurakdan chiqmagan, zo'rma-zo'raki urinishlar bo'lib, hali madaniy hayotimizda voqea bo'ladigan yetuk va mukammal asarlar yaratilgani yo'q, desak, bu ham haqiqat bo'ladi. Ochig'ini aytganda, ba'zi ijodkorlarga bu masala biroz g'alati tuyulishi, ular buyurtma bilan yaxshi asar, to'laqonli obraz yaratib bo'lmaydi, degan fikrni bildirishi ham mumkin. Lekin men o'ylaymanki, san'atkor – agar u haqiqiy iste'dod egasi bo'lsa – ijtimoiy buyurtma asosida ham yetuk asar yaratishga qodir bo'ladi. G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Turob To'la, Jumaniyoz Jabborov va boshqa atoqli shoirlarimiz ijodidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "Abu Rayhon Beruniy", "Mahallada duv-duv gap", "Yor-yor" kabi mashhur filmlarimiz ham o'z vaqtida davlat buyurtmasi bilan yaratilgani sizlarga yaxshi ma'lum. Yoki O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhordek talabchan adib ham bir paytlar Mirzacho'lga borib, ikki-uch oy chaylada yashab, buyurtma bilan "Shohi so'zana" degan go'zal asar yozganini, u dunyoning ko'plab mamlakatlarida sahnaga qo'yilib, shuhrat qozonganini hammamiz bilamiz. Bugungi imkoniyatdan foydalanib, siz, azizlarga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman. Eng iste'dodli va mas'uliyatli yozuvchilarimiz, kino, teatr, musiqa va tasviriy san'at arboblari ijtimoiy buyurtma berish masalasini tizimli asosda yo'lga qo'ysak, ularni yurtimizning turli hududlariga ijodiy safarlarga yuborib, yangi asarlar yaratishga rag'batlantirsak, nima deysizlar? Masalan, taniqli shoirlarimiz Anvar Obidjon Farg'ona vodiysida, Mahmud Toir Toshkent viloyatida, Sirojiddin Sayyid Surxon vohasida bo'layotgan bugungi ulkan o'zgarishlar haqida yangi asarlar yozib bersa, qanday yaxshi bo'lardi. Yoki hurmatli shoiramiz Halima Xudoyberdiyeva bugungi yosh o'zbek qizlari hayoti, ularning orzu-intilishlari haqida bir asar – mayli, bu doston bo'ladimi, drama yoki ssenariy bo'ladimi – yozib bersalar, ayni muddao bo'lardi. Mana shunday asarlarni biz Oydin Hojiyeva, Enaxon Siddiqova, Sharifa Salimova,

Xosiyat Bobomurodova, Farida Bo`tayeva, Gulaysha Yesemuratova, Zulfiya Mo`minova, Zulfiya Qurolboy qizi va boshqa faol ijodkor ayollarimizdan ham kutib qolamiz.

Mana shu davrada o`tirgan, joylarda bizni eshitayotgan barcha ijodkor do`stlarimizning ham ijodiy rejaları bo`lsa, biz ijodiy uyushmalarimiz orqali bunday takliflarni ko`rib chiqishga tayyormiz. Agar Abdulla Qahhor chaylada yashab asar yozgan bo`lsa, biz sizlar uchun barcha sharoitlarni yaratib, kerak bo`lsa, gonorarini oldindan, 5-10 hissa qilib to`lab berishga ham tayyormiz. Barchamiz, ayniqsa, bu yerda yig`ilgan ijodkor ziyolilarimiz, bizning qanday buyuk va shonli o`tmishimiz, qanday ulug` ajdodlarimiz borligini yaxshi bilamiz va bu bilan hamisha faxrlanamiz.

Misol uchun, bironta jangda yengilmagan buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurni olamizmi, algebra faniga asos solgan Al-Xorazmiyni olamizmi, Kolumbdan 500 yil oldin Amerikani kashf etgan Beruniy bobomizni olamizmi, o`rta asrlarda tibbiyot fanining poydevorini yaratgan Ibn Sinoni olamizmi, astronomiya sohasida beqiyos kashfiyotlar qilgan Mirzo Ulug`bekni olamizmi – jahon sivilizatsiyasi va madaniyatiga ulkan hissa qo`shgan bunday ulug` ajdodlarimizning har biri haqida soatlab gapirishimiz mumkin. Lekin, xolisona aytganda, keyingi paytda ana shunday ulug` zotlar, ular qatorida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Burhoniddin Marg`inoniy, Abu Mo`in Nasafiy kabi aziz-avliyolarimiz, Alisher Navoiy, Bobur kabi shoir va mutafakkirlarimiz xotirasini kino ekranlarida aks ettirish uchun biron-bir arziydigan ish qildikmi? Tan olish kerakki, yo`q! Bu mavzularda bundan qirq-ellik yil oldin ustoz kino ijodkorlarimiz tomonidan ba`zi bir asarlar yaratilgan bo`lib, ular hozirga qadar ekranlardan tushmay kelmoqda. Mustabid tuzumning og`ir sharoitida shunday kinofilmlar yaratganlari uchun ulardan albatta minnatdormiz. Lekin bu asarlar o`z davrining mafkurasi bilan sug`orilgani, ularning ayrimlarida tarixiy haqiqat buzilganidan ham ko`z yumib bo`lmaydi. Albatta, yaqin o`tmishimizda ham taniqli rejissyorlarimiz tomonidan bu borada ba`zi bir

harakatlar bo`lganini e'tirof etish lozim. Masalan, atoqli adiblarimiz Oybek hamda Pirimqul Qodirovning romanlari asosida taniqli telerejissyor Maqsud Yunusov "Alisher Navoiy" va "Bobur" videofilmlarini yaratganini, ularda mashhur aktyorlarimiz mahorat ko`rsatganini yaxshi bilamiz. Ammo bu filmlarni suratga olishda moddiy-moliyaviy va texnik imkoniyatlar nihoyatda cheklangani yaqqol sezilib turadi. Keyinchalik "O`zbekfilm" studiyasi "Buyuk Amir Temur" badiiy filmi yaratdi. Lekin, ming afsuski, bu asar kutilgan natijani bermadi, uni "Mana bizning Sohibqiron bobomiz!" deb faxrlanib, ko`z-ko`z qilib ko`rsatishning imkoni bo`lmadi. Ijodkorlarimiz tarixiy mavzuga qo`l urar ekanlar, ko`lamni kengroq olishga, marrani baland qo`yishga alohida e'tibor qaratishlarini istardik. Chet ellarda Spartak, Gannibal, Aleksandr Makedonskiy, Napoleon, Leonardo da Vinchi, Betxoven, Lev Tolstoy kabi buyuk shaxslar haqida tarixiy va badiiy jihatdan mukammal qanday yetuk asarlar yaratilgan!

Holbuki, bizning ulug` bobolarimiz ham ulardan ziyod bo`lsa ziyodki, lekin aslo kam emas. Agar biz ajdodlarimiz xotirasini ulug`lamoqchi, shu asosda o`zbek nomini, O`zbekiston nomini butun dunyoga tarannum etmoqchi ekanmiz, bu ishni birinchi navbatda kino san'ati orqali amalga oshirishimiz kerak. Aynan kino san'ati orqali jahon ekranlarini zabt etishimiz, shu yo`l bilan dunyo ahlining diqqat-e'tiborini qozonishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, davlat buyurtmasi asosida buyuk tarixiy ajdodlarimiz haqida har tomonlama yetuk badiiy filmlar yaratish uchun maxsus ijodiy guruhlar tashkil etish, o`ylaymanki, maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Misol uchun, hurmatli adibimiz Muhammad Ali ko`p yillardan buyon Amir Temur bobomiz haqida qancha-qancha kitoblar, romanlar yaratdi. Mana shu asarlar asosida kino rejissyorlarimiz, aytaylik, muhtaram Shuhrat Abbosov yoki Zulfiqor Musoqov, yuksak xalqaro mezonlarga javob beradigan filmni nima uchun yaratishi mumkin emas?

Yoki, masalan, atoqli rejissyorimiz Bahodir Yo`ldoshev ham necha yillardan buyon Mirzo Ulug`bek haqida mukammal bir asar yaratish orzusi bilan

yurganini men yaxshi bilaman. Taniqli olim, Astronomiya institutining direktori Shuhrat Egamberdiyev ham Mirzo Ulug`bekning o`lmas merosini butun dunyoda targ`ib qilib yuribdi. Ularning mana shunday say-harakatlarini ro`yobga chiqarish uchun zarur sharoit yaratib bersak, men o`ylaymanki, jahon kino ekranlariga chiqa oladigan go`zal bir badiiy film vujudga kelgan bo`lardi. Mana, bugun davramizda Rixsivoy Muhammadjonov, Hilol Nasimov, Yolqin To`ychiyev kabi iste`dodli ssenarist va rejissyorlarimiz o`tiribdi. Ayni vaqtda, Bahodir Odilov, Abduxalil Mengnorov, Ayub Shaxobiddinov, Mansur Abduxoliqov singari taniqli rejissyorlarimiz ham faol ijod qilyapti. Men sezib turibman, bu gaplarni eshitib, ko`pchilik ijodkorlarda “Ey, janob Prezident, siz aytayotgan takliflarni amalga oshirish uchun juda katta mablag` kerak, eng zamonaviy kino apparatlar, tarixiy liboslar kerak, qancha chet mamlakatlarda syomka ishlarini olib borish kerak, ming-minglab odamlarni bu jarayonlarga jalb etish kerak”, degan fikr tug`ilishi tabiiy.

Bizning nafaqat tariximiz, balki bugungi va ertangi hayotimiz uchun g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lgan bu vazifani amalga oshirish uchun biz katta miqdordagi mablag`larni, kerak bo`lsa, erkin muomaladagi valyuta mablag`larini ham topib berishga, kinochilarimizni chet davlatlarga ijodiy safarlarga yuborishga ham tayyormiz. Xudoga shukur, bugungi iqtisodiy ahvolimiz bunga imkon beradi.

Aziz do`stlar, mening bu so`zlarimni buyruq yoki topshiriq deb emas, iltimos deb, ijodga da`vat deb qabul qilishingizni istardim. Agarki, biron kishiga “davlat buyurtmasi” degan so`z boshqacha tuyuladigan yoki malol keladigan bo`lsa, marhamat, buni hozirgi moda bo`lgan tilda “davlat granti” deb ataylik.

Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o`ta muhim masala borki, unga alohida to`xtalib o`tishni zarur deb bilaman. U ham bo`lsa, unib-o`sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog`liqdir. Buyuk bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o`z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo`qotmaydigan, ta`bir joiz bo`lsa, masalalarning

masalasi. Shu ma'noda, bugungi kunda yurtimizda tobora keng tarqalib borayotgan "O'z bolangni o'zing asra!" degan da'vat faqat quruq shior bo'lib qolmasdan, har bir ota-ona, har bir fuqaroning qalbiga, yuragiga chuqur kirib borishi, amaliy harakatga aylanishi uchun ijodiy tashkilotlarimiz ham o'z mas'uliyatini jiddiy ravishda qayta ko'rib chiqishlari davr talabiga aylanmoqda. Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar "ommaviy madaniyat" tahdidi faqat chetdan – G'arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o'zimizdan, o'z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo`q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba'zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo`shiq va raqslarni kuzatib, sog`lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy. Eng yomoni, badiiy ijod sohasida jaholat ko`rinishlari kuchayib bormoqda. Biz "jaholat" deganda odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o`z vaqtida kurash olib borilmasa, o`ta og`ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko`rsatmoqda. Biz bugun jaholat degan baloga iqtisodiyot sohasida ham, ta'lim-tarbiya, sog`liqni saqlash, madaniyat tizimida ham, qo`yingki, hayotimizning barcha jabhalarida duch kelyapmiz va bu illat qo`l-oyog`imizda bamisoli kishan bo`lib turibdi. Bu kishandan xalos bo`lmasdan turib, taraqqiyot va rivojlanish haqida hech qanday so`z bo`lishi mumkin emas.

Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o`rgatish, ularning estetik olamini sog`lom asosda shakllantirish bo`yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi.

Shu nuqtai nazardan, kino sohasi faoliyatiga baho beradigan bo`lsak, bu borada muayyan yutuqlar bilan birga, jiddiy nuqson va kamchiliklar ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Ba'zi filmlarda mayda maqsadlar bilan yashaydigan, hayotga faqat iste'molchilik kayfiyati bilan qaraydigan kimsalar asosiy qahramon sifatida tasvirlanayotgani tashvish uyg`otmasdan qo`ymaydi. Eng yomoni, nomdor

san'atkorlar, hatto "O'zbekiston xalq artisti" degan yuksak unvonga sazovor bo'lgan aktyorlar ham mana shunday kinolarda turli bachkana rollarni ijro etmoqda. Avval durustgina filmlar yaratgan rejissyorlar ham, sal o'tmasdan, xom-xatala asarlar bilan tomoshabinlarning ixlosini qaytarmoqda.

Yaqinda "Toshkent haqiqati" gazetasida shu mavzudagi bir maqolani o'qidim. Maqola muallifi ayrim kinolarimizning xorijiy filmlardan aynan ko'chirib olingani, ya'ni adabiy o'g'rilik – plagiatga yo'l qo'yilayotgani haqidagi fikrlarni bayon etib, aniq misollarni keltiradi. Afsuski, bu milliy kinolarimizga nisbatan bildirilayotgan yagona tanqidiy fikr emas. Bunday maqolalarni matbuotda ko'plab uchratish, bunday fikrlarni juda ko'p odamlardan eshitish mumkin. O'zingiz ayting, ijodkorning sha'ni, g'ururi, san'atga sadoqat degan tushunchalar qayoqda qoldi? Vaholanki, hozirgi vaqtda biz kino sohasiga davlat byudjetidan har yili milliardlab so'm mablag` ajratyapmiz. Birgina shu yilning o'zida "O'zbekkino" milliy agentligiga byudjetdan 12 milliard 400 million so'm ajratiladi.

Yoki bo'lmasa, respublikamizdagi mavjud 37 ta teatr faoliyatini ta'minlash uchun ham har yili katta miqdorda mablag`lar yo'naltiriladi. Bu yilning o'zida ushbu maqsadda davlat byudjetidan 81 milliard so'mdan ortiq mablag` ajratilgan.

Albatta, davlatimiz, jamiyatimiz san'at rivoji uchun hech narsani ayamaydi. Lekin bu borada kutilgan natijaga erishilayaptimi? Bu savolga bugun ijobiy javob berish qiyin ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi bilamiz. Aksariyat teatrlarimizning repertuarlari g'oyaviy-badiiy jihatdan nochor, ulardan o'rin olgan spektakllarda bugungi kun nafasi, odamlarni o'yantirayotgan, hayajonga solayotgan jiddiy ijtimoiy muammolar o'z aksini topmayapti. Afsuski, teatrlarimiz ko'proq maishiy mavzulardagi yengil-yelpi, bachkana asarlar, odamga na ma'naviy oziq, na estetik zavq beradigan tomoshalarni namoyish etishga o'rganib qolgan.

Yaqinda "Kitob dunyosi" gazetasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shodiya Abduqodirova (To'xtayeva) bilan o'tkazilgan "Adabiyotni sevmay turib, san'atni sevib bo'lmaydi" nomli suhbatini o'qib qoldim. Aktrisa aytadi:

“Bundan 15-20 yil oldin, xususiy filmlar chiqayotganda, bachkanalik deb dod solindi. Vaholangki, o`sha xususiy filmlar hozir ekranning adashmasam 70 % egallab turibdi. Xususiy kinolar davlat kinolarini changida qoldirib ketdi. Davlat buyurtmasiga binoan olinadigan kinolarimiz bor. Judayam ko`p mablag` ajratilyapti, e`tibor qaratilyapti. Tarixiy kinolarga-da qo`l urilyapti. Biroq tomoshabin yengilroq, tezkor dubliyajda ishlanayotgan seriallarni ko`ryapti. Xususiy kanallarning oshig`i olchi bu borada. G`alati odatlarimiz bor. Didimizga putur yetdi. Ayni o`sha didsizlik odamni omilikga boshlaydi. Farzandlarga ko`rayotgan serialdagi ismni qo`yishadi. Bundan katta fojea, didsizlik, omilik bo`lmasa kerak. Lekin sayoz tafakkurdan qutilishning yo`llari ham ko`p. Barchamiz uyg`onish pallasini kutuyabmiz. Ya`ni qaysi ma`noda. Teatr sohasida o`zgarishlar bo`lishini judayam xoxlardim. U deymiz, bu deymiz. Shuncha teatr va kino studiyalari ochilyapti. Ammo, o`zimizdan misol, chet el dramaturgiyasini xoxlaymiz, klassika o`ynashni xoxlaymiz, deb aktyorlar bong urishadi, xo`p shuni sahnalashtirdik ham, biroq tomoshabin kelmayapti-ku! Tomoshabinlarimizni hali ham qaynona-kelin munosabatlari qiziqtiradi. Aktyorlar o`saman deb katta bir ishga olti oy lab tayyorlansa-yu, tomoshabin kelmasa... Bilasizmi qachon uyg`onamiz?! Qachonki, butun millat kitobxonga aylansa... hozir mamlakatimiz shu ishning boshida”^[3].

Suhbatda o`zingiz ham guvohi bo`lganingizdek, mamlakatimiz rivoji barcha soha vakillaridan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishini talab qiladi. Mamlakatimiz rivoji uchun barchamiz birdek mas`uliyatni bo`ynimizga olmas, yurt kelajagi, vatan ravnaqi, xalq turmushi farovonligi uchun mehnat qilmas ekanmiz, Prezidentimiz tomonidan qilinayotgan barcha sayi-harakatlar ko`zlangan natijani bermasligi mumkin.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat –yengilmas kuch” asarida ham “Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo`lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo`lga kiritish, milliy tiklanish, o`z

³ “Kitob dunyosi” gazetasi 2019-yil 13-iyun soni. 8-bet

davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohlarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo`ladimi – o`zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro`yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko`ramiz.

Masalan, Yaponiya yoki Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamlakatlarning ikkinchi jahon urishidan keyingi qanday og`ir ahvolga tu shib qolganligini hammamiz yaxshi bilamiz. Xo`sh, ular nimani evaziga qisqa davr ichida bu qadar rivojlanishga erisha oldi? Axir, bu o`lkalarda mo`l-ko`l tabiiy xom-ashyo manbalari, mineral resurslar deyarli yo`q-ku! Albatta, bu borada o`sha paytda dunyoda mavjud bo`lgan siyosiy omillar, xalqaro vaziyatning ta`sirini inkor etib bo`lmaydi. Lekin yapon va koreys xalqi asrlar davomida shakllanib, katta bunyodkor kuchga aylangan o`ziga xos milliy ma`naviyati hisobidan ham rivojlangani bugungi kunda hech kimga sir emas. Shuning uchun “Yapon mo`jizasi” yoki “Koreys mo`jizasi” haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda “Yapon xarakteri”, “Koreys tabiati” degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o`rinda avvalo, mazkur xalqlarga mansub ma`naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya`ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma`naviyat negizida toblangan, kamolga yetgan. Bunday xulosaning tasdig`ini nafaqat mazkur ikki davlat, balki boshqa mamlakat va xalqlar misolida ham ko`rish qiyin emas”^[4]. Bolaligimda buvijonimdan bir rivoyat eshitgan edim. Bir mamlakat podshohi oq marmardan ajoyib hovuz bunyod etibdi-yu, “Ahli fuqaroning har biri erta tongda bir kosadan sut keltirib hovuzga to`ksin” deb amr qilibdi. Farmonni eshitgan bir kishi “Shuncha odam orasida bitta men sut o`rniga suv olib borib to`ksam kim bilib o`tiribdi” degan qarorda suv ko`tarib boribdi-yu hayratga tushibdi: Buni qarangki, shahardagi boshqa odamlar ham aynan shu fikr, shu ahd bilan suv keltirgan ekanlar. Bejizga inshoning kirish qismini ushbu rivoyat bilan bilan boshlamadim. Rivoyatdan ibrat shuki, Vatan bilan o`zni bir butunlikda

⁴ I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma`naviyat nashriyoti 2008 yil

deb his etgan, vijdoni pokiza odamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti uchun mehnat qilish ishtiyoqidan boshqa narsa bo`lmasligi kerak nazarimda. Chunki, “Yillarning yig`ini umr sanalmas, Vatanga naf tekkan kuning umrdir” degan maqol bekorga aytilmagan. Donolar Vatan yuksalishi yo`lidagi xizmati bilan shuhrat topishini “ikkinchi umr” deganlar. Kishi o`zini Vatanga qanchalar yaqin his etsa, uni shu qadar jonli vujud kabi aniqroq va sevibroq tasavvur qiladi. Muqaddas kitoblarimizda “Vatanni sevmoq iymondandir” so`zlari keltirilgan. Darhaqiqat, Vatanga mehr har bir insonning o`z qalbidan, vijdonidan boshlanadi.

Vatanga muhabbat tushunchasini ikki ravishda o`rganish mumkin. Birinchisi – jismoniy tarzda. Ya`ni: tug`ulgan joy. Bu his barcha jonzotlarga xos. Chumolidan tortib, filgacha o`zi tug`ulgan, yemish yeydigan joyini avaylaydi, lozim bo`lganida jon-jaxdi bilan himoya qiladi. Misol uchun cho`p olib, ari uyasini buzishga urinib ko`raylik-chi?

Ikkinchi tushuncha – faqat yuksak ong egasi – insonga xos ruhiy, yanada aniqroq aytsak, ma`naviy xolatdir. Bu xolat ko`proq qalbga, ongga, tuyg`uga bog`liq. Xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshimiz bir ibratli voqeani guvohi bo`lgan ekan, aytib bergan edi: Bir mashhur restoranda nemis va yahudiy do`stlari bilan o`tirishgan ekan. Gazeta sotib yurgan yigitcha yaqinlashganida, yahudiy uni chaqirib, Isroilda chiqadigan gazetani sotib olibdi. “Sen ibrat tilini bilmaysan-ku, gazetani nega sotib olding?” deb ajablanibdi nemis. “Ha, afsuski, ona tilimni bilmayman, bu mening uyatli tomonim. Lekin bu gazeta ona-Vatanimda chiqadi. Uni sotib olish bilan u yerdagi birodarlarimga yordam bergan bo`laman” deya javob beribdi. Bu holat ham qaysidir ma`noda Vatanga hizmat qilishning bir zarrasi bo`lib ko`rindi menga. Yana bir insonni bilaman. Uni taniganimdan beri, egnida xorijda ishlab chiqarilgan kiyimni ko`rmaganman. Sifatsizroq bo`lsa ham, faqat o`zimiznikini kiyadi va buni vatanparvarlikning kichik bir zarrasi deb biladi. Sanoatimiz yuksalish pallasiga kirgan ayni damda ba`zan shunday zarralar ham ahamiyatlidir.

Keyingi yillarda ma'naviyat sohasi g'oyaviy kurash maydoniga aylana boshladi. Ochiqdan-ochiq va ba'zan yashirin mafkuraviy hurujlar kutilgan natijani bermagani ayon bo'lgach, geosiyosiy kuchlar diqqat-e'tiborni ma'naviyatga qaratishdi. Ma'naviy sohadagi eng jiddiy xatar – vatansizlik, “dunyo fuqorosi” mafkurasining yoyilishidir. Buning uchun kosmopolitizm g'oyasini targ'ib etishdan foydalaniladi.

Kosmopolitizm (yunoncha “kosmopolites” – dunyo fuqorosi ma'nosini bildiradi) - butun yer yuzini yagona vatan deb, shaxsning o'z tug'ilgan yurtiga, xalqiga, davlatiga bo'lgan mehri, sadoqati, himoyatini siyqalashtiruvchi oqim. Vatansizlik, vatanning bugungi va ertangi kuniga befarqlik, mustaqilligini qadrlamaslik kabi zararli g'oyalar kosmopolitizmga tayanadi va oziq oladi. O'zlarini “dunyo fuqorolari” deb ataydigan kishilar toifasi tayyorlanadi va ularga yaqin kelajakda Yer yuzida umuman hech qanday chegara qolmaydi, degan fikr singdiriladi. Vatanparvarlikning aksi va inkori sifatida yuzaga kelgan kosmopolitizm tarixan turli shakllarda namoyon bo'lgan. Qayerda hayot oson va qorin to'q bo'lsa, o'sha joyni vatan tutish, vatan boy bo'lsa, sevib, boshiga kulfat tushganda uni tark etish, o'z yurti qolib, o'zga makonlarga suqlanib qarashlar – bular bari vatansizlik ko'rinishlaridir.

Oynai jahon orqali efirga uzatiladigan yangiliklar orqali bojxona xabarlarini eshitib, ko'rib ochig'i hayratga tushaman. O'zbekistonliklar o'zlariga zarur bo'lgan mahsulotlarni qo'shni mamlakatlarga olib o'tib sotishga urinishadi. Yoki aksincha, u yoqlardagi arzon-garov sifatsiz mahsulotlarni olib kelib bizlarga qimmat baholarda sotishadi. Nafs g'olib yurakda Vatan tuyg'usi bo'lmaydi. Ma'naviy dunyomizni buzishga hizmat qiluvchi narsalarni xorijdan olib kelib sotish ham shuning ayni o'zi. Bundaylarda jonni fido qilish degan yuksak tuyg'uni qo'ya turaylik, oddiygina “Vatanga mehr” degan tushuncha bormikin?” deb o'ylab qolaman. Viktor Gyugoning “Vatanga dog` tushurish – uni sotish demak”, degan gapi xayolimga keldi. Shoir tili bilan aytganda: “Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr, u qalban shikasta, u qalban majruh”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o`zining BMTning 72-sessiyasida xalqaro jamoatchilikka qarata “Olamni ma’rifat qutqaradi” [5]mazmunidagi tashabbusi barchamizni, butun insoniyatni ma’naviy taxdidlardan ogohlantirdi. Demak, biz qanchalik milliy o`zligimizga yaqin borsak, sivilizatsiyaning shuncha yuqori darajasiga ko`tarilamiz. O`zbekning o`zligiga sadoqati O`zbekistonni XXI asrning ma’naviy poytaxtiga aylantiradi.

Biz Vatanni tinmay madh etishni vatanparvarlik deb o`ylaymiz. To`g`ri, madh etmoq ham lozim, ammo bu bir zarradir xolos. Ya’ni ummonga tomizilgan birgina tomchidir. Bobolarimiz aytadilarki: “Vatanparvarlik nomusli va nazokatli tuyg`udir. Muqaddas so`zlarni ehtiyot qil, shamolga sovrma. Vatanga muhabbat xususida duch kelgan yerda og`iz ko`pirtirma, yaxshisi uning farovonligi va qudrati yo`lida mehnat qil”. Vatanga mehr-muhabbatli bo`lish – g`oyat chidam, g`oyat yuksak ong talab etuvchi o`ziga xos ilm va buni egallash ham beshikdan boshlanmog`i va oqibat so`nggi nafasga qadar davom etmog`i lozim.

O`zbekistonning fazilatlarini bo`rttirish shart emas. Bu xalq ro`yi zaminning tarixini boyitishga, ma’naviy olamining yuksalishiga ulkan hissa qo`shib kelgan va bundan keyin ham shunday bo`lajak. Lekin biz o`tmish bilan faqat faxrlanibgina qolmay, Vatan ravnaqi, yurt kelajagi uchun ulug`lar an`anasini davom ettirishga mas’ul ekanligimizni unutmay, shunga yarasha xarakat qilishimiz shart.

Keyingi galdagi murojat Teatr arboblrimiz o`zlarining matbuot va televideniyaedagi chiqishlarida ko`pincha ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo`ja Behbudiyning “Teatr – ibratxonadir” 6degan hikmatli so`zlarini keltirishni yaxshi ko`radilar. Lekin mana shu dono so`zlarni faqat og`izda aytmasdan, o`z faoliyatimizda ularga amal qilsak, ayni muddao bo`lard, deb o`ylayman. Men goh-gohida madaniyat sohasiga mas’ul bo`lgan rahbarlarimizdan “Qachon endi, bir yaxshi spektakl yoki kinofilm yaratib, bizni taklif qilasizlar”, deb so`rab turaman. Afsuski, shunda ular xijolat tortib, “Shavkat Miromonovich, hali sizga

⁵ Shavkat Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so`zlagan nutqidan

⁶ Saviya.uz

ko`rsatadigan munosib asarlar yaratolganimiz yo`q, bizga yana ozgina fursat bering”, deyishadi. Mayli, men tushunaman, bu ijodiy jarayon, lekin har qanday muddatning ham chegarasi bo`lishi kerak-ku. O`zingiz ayting, xalqimizga manzur bo`ladigan film va spektakllar qachon yaratiladi deya soha vakillariga yuzlandilar. O`ylaymanki, ushbu sohalar rivoji yo`lida qilinayotgan sayi-harakatlar o`zining ijobiy samaraini beradi.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, mamlakatimizda madaniyat tizimini rivojlantirish bo`yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. O`tgan qisqa davrda bu borada ikkita muhim hujjat – “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” farmon, “Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to`g`risida” qaror qabul qildik. Lekin, shunday bo`lsa-da, bugungi kunda tizim faoliyatini qoniqarli baholay olmaymiz. Madaniyat vazirligi mutasaddilarida sustkashlik, o`zibo`larchilik, xotirjamlikka berilish kayfiyati davom etmoqda.

Vazirlik rahbariyatida barcha madaniyat va san`at tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirib, ularga ilmiy-uslubiy yordam berish, bir so`z bilan aytganda, madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini olib borish salohiyati yetishmayapti.

Tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda madaniyat va san`at muassasalarida mehnat qilayotgan kadrlarning 50 foizdan ziyodi oliy ma`lumotga ega emas. Buning asosiy sababi, institutlarni bitirib joylarga ishga borayotgan kadrlarga zarur sharoit yaratib berilmagan.

Bugungi kunda vazirlik tizimida 41 ta muzey va ularning 76 ta filiali faoliyat ko`rsatmoqda. Ana shu muzeylarda, yordamchi fondlar bilan birga, 1 million 736 mingdan ziyod eksponat mavjud. Bu – juda katta boylik. Lekin bu boylikni asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda o`rganish, tashviqot qilish, kelajak avlodlarga yetkazish masalasida, afsuski, qator muammolar bor. Masalan, “Muzeylar to`g`risida”gi qonunda belgilangan milliy muzey fondining davlat katalogini yaratish haqidagi talab 8 yildan buyon bajarilmayapti. Ushbu fikrlar

qanchalik haqiqat ekanligini muzeylarimizga tashrif buyuruvchilar sonidan ham bilsa bo`ladi.

Yana bir muhim masala – eng ommaviy san`at bo`lgan estrada san`atini rivojlantirish vazirlik e`tiboridan chetda qolmoqda. Eng asosiy kamchilik – bu sohada ijod qilayotgan aksariyat ijrochilar faoliyatida talabchanlik va mas`uliyat, ijtimoiy jarayonlarga daxldorlik tuyg`usi tobora pasayib bormoqda. Men o`z tajribamdan yaxshi bilaman, katta bayramlarimizni – bu Mustaqillik, Navro`z yoki Konstitutsiya bayrami bo`ladimi – ularni o`tkazishda bizni eng qiynaydigan, xunobimizni chiqaradigan narsa – bu estrada dasturi ekanini hammangiz yaxshi bilasiz. Ming afsuski, mana shu holat hali ham barham topgani yo`q. Estrada san`atidagi kamchiliklarning asosiy sabablari hech kimga sir emas. Ko`pchilik qo`shiqchilar mas`uliyatni unutib, o`z ustida ishlamay qo`ygan, izlanish, mahoratini oshirish, yangi ijodiy g`oyalar bilan yashash, san`at dunyosiga, muxlislarga hurmat kabi tushunchalar ularga begona bo`lib qolgan, desak, qanchalik achchiq bo`lmasin, bu ham haqiqat.

Insoniyat xursandchiligini yoki qayg`usini – so`z, kuy, qo`shiq, o`yin yoki raqsda ifodalay oladi. His tuyg`ularning ifoda vositasi deb ham qarashimiz mumkin. Charliz Darvin qushlarning sayrashi va hayvonlarning o`z juftlarini chaqirishini ajoyib ohang, kuy deya nomgani sir emas. Musiqa shundayin qudratli kuchga ega bo`lib, o`z ohanglari bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan esa musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytilmagan. Musiqadagi Estrada janri, bu – turli madaniyatlar, xalqlar badiiy g`oyalarini aks etgan musiqa turidir.

Shu o`rinda “Estrada” (*fr. ESTRADA, lot. STRATUM*) atamasi aslida taxtadan pol qurish yoki sahna qurish ma`nosini anglatadi. Shu bilan birga konsertlar o`tkazish uchun maxsus qurilgan sahna (joy)ni bildiradi. “Estrada san`ati” – musiqaning bir turi bo`lib, ko`p qamrovli, ko`pincha yengil cholg`u va vokal musiqa asarlar yig`indisi deyiladi. Shuningdek, Estrada musiqasi – turli mavzu va mazmunda bastalangan yengil, rang-barang, xilma-xil qo`shiq, cholg`u musiqasi, musiqa san`atining bir turidir. Estrada musiqasi yoki qo`shig`i haqida

gap ketsa, “yulduz” degan atamani ishlatishga monandlik keyingi paytlarda avj oldi. Ayrim xonandalarimiz esa (Farhod va Shirin “Kulib turib”, Ulug`bek Rahmatullayev “Bemor”, Yagona “Kasablanka”, Shahzoda “Zoringman”, Sevinch Mo`minova “Ne bo`ldi” va hokazolar) sahnada xorijlik qo`shiqchilarning ijod namunalarini o`zlashtirib kuylashini, milliy qadriyatlarimizga xos bo`lmagan yengil-elpi harakatlarini qanday baholash mumkin? Bu kabi holatlar to`ylarimizda ham avj olib borayotgani tashvishlanarli, albatta. Kaykovusning **“Qobusnoma”** asarida “Ey farzand, agar hofiz bo`lsang, xushfe`l, quvnoq bo`l, hamisha pok, mutayyab va xush zabon bo`lg`il va o`z ishingga mashg`ul bo`lg`il, yaramas xulq, qo`pol bashara bo`lmag`il” [7] - deya ta`riflangan. Biz qo`shiqlar sifati haqida gapirish bilan bir qatorda, san`atkorning ma`naviyati, uning xush zabon va xushfe`l bo`lishi kerakligi haqida ham ta`kidlab o`tishimiz lozim. To`g`ri, bugun kimgadir sen nega bu qo`shiqni aytayapsan, deb taqiq qo`yish noo`rin. Lekin masalaning tarbiyaviy ahamiyatini hisobga olsak, bu borada zarur chora-tadbirlarni ko`rish shart. San`at nimaligini tushunmasdan qo`shiq aytayotgan ayrim yoshlarimizning jonli ijroda kuylay olmasligi ham ma`lum. San`atda chegara yo`q deb ataymiz, ammo bizning qadriyatlarimiz, an`analarimiz mujassam bo`lgan san`at namunalarini dunyoga keng tanitish, o`rniga biz chet el musiqalarini o`zlashtirishimiz biroz noqulay vaziyatlarni tug`dirmasmikin. San`atshunoslik fanlari nomzodi, professor Soib Begmatov — “Har bir xalqning o`ziga xos milliy estrada san`ati bo`lishi kerak. Masalan, hind musiqasini Afrikadagi yoki Janubiy Amerikadagi odamlar ham bilishadi, hech ikkilanmay «bu hindlarniki”, [8] deyishadi. Shu bois, bugun g`arbgga taqlid qilib, ajnabiy musiqalarga mazmunan sayoz matn qo`yib kuylash, bu endi san`atga ham, millatga ham hurmatsizlik bo`ladi. Bu tarzda qo`shiq aytishdan uyalish kerak” – deya aytgan fikrlari yuqoridagi so`zlarimning isbotidir. Qaroqchilik oqibatida u yoki bu xalq qo`shiqchisi repertuariga yamoq solinib, “quroq” ohanglar tuzilmasi hosil qilinishi yetmagandek, o`zlarini Totlisas, Xyuston, Tarkan va hokazo qilib ko`rsatishga

⁷ Kaykovus “Qobusnoma” asari Toshkent G`ofur G`ulom nashriyoti 2008

⁸ Soib Begmatov “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi 2016 yil 21.04. 4-bet

urinishlar ko`payib bormoqda. Aslida ko`chirmakash “yulduz”ning ko`rinishi sun`iy ravishda boshqa tizim uslubiga moslashishdan boshqa narsa emas. An`anaga qarshi qaratilgan, havasmand “yulduzlar” ijodi ham ularning ijrochilari kabi ohanglar bo`laklaridan tashkil topgan “quroq” shaklida bo`lib, milliy madaniyat tizimidan uzoqda, bog`lanishlarsiz, alohida tizim sifatida rivojlanishi rivojlanish qonunlarida qayd etilmagan. Shu o`rinda yana bir muhim masala bor. Axloqqa zid, mazmunan sayoz qo`shiqlar ko`pgina illatlarga sabab bo`ladi. Ayniqsa, biz yoshlar ruhiyatida yengil-elpi hayotga moyillikni kuchaytiradi. Asta-sekin sog`lom fikrga ta`sir ko`rsata boshlaydi. Bu holat esa ma`naviyatni yuksaltirmaydi, aksincha unga putur yetkazadi. Shuningdek, «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasining bo`lim mudiri Gulchehra Umarova musiqada – “Avvalo, matnga e`tibor nihoyatda susayib ketgan. Har qanday qo`shiqning asosini matn tashkil etishini yaxshi bilamiz. Shubhasiz, musiqa va ijro ham qo`shiqning asosiy tarkibiy qismlari. Lekin bu o`rinda so`zning ta`sir kuchini, uning qudratini e`tirof etmaslikning iloji yo`q. So`zning odam ongiga, dunyoqarashiga, ma`naviyatiga ta`siri nihoyatda katta ekani haqida buyuk ajdodlarimiz bisyor hikmatlar qoldirib ketgan”^[9] – deya o`z fikr mulohazalarini bildirdi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Nima uchun madaniy hayotimizda tanqidiy ruh sezilmayapti? Sog`lom tanqid, bahs va tortishuv bo`magan joyda chinakam ijod bo`lishi mumkinmi o`zi? Bu borada Madaniyat vazirligi, “O`zbekkino” agentligi, Bastakorlar uyushmasi, “O`zbekkonsert” va boshqa ijodiy tashkilotlar qoshidagi badiiy kengashlarning faoliyati deyarli sezilmayapti. Yaratilayotgan asarlar, film va spektakllar, ko`rgazma va konsert dasturlariga prinsipial va malakali baho berish, matbuotda xolis va haqqoniy retsenziyalar, xulosalar bildirish tobora kamyob hodisaga aylanib bormoqda” deya soha tannazzuli haqida kuyinib fikr yurtimoqdalar.

O`zbek estrada qo`shiqchiligining bugungi soxta “yulduzlar” ijodida – she`riyatdan uzilgan, besamar, savodsizlarcha bitilgan qo`shiqlar matni ko`plab

⁹ Gulchehra Umarova “O`zbekiston adabiyoti va san`ati” gazetasi 2018 yil 11.08. 5-bet

kuzatilmoqda. Ba'zan esa o'zimizga sir emas qo'shiqchilarning o'zlari ham she'r yozib, ham kuy bastalab bir tayyor taronani taqdim etishmoqda. Bu boradi bir fikr tug'iladi, biz kimdandir ozgina, yana kimdandir ozgina olib o'zimiznikilarga barilla buni men yaratdim deya maqtanishga uyalmasmikinmiz. Xo'sh, unda bu asarlar nima sababda yaratilmoqda? Nima uchun shuncha, mehnat, shuncha mablag`, shuncha kuch ajratilmoqda? Agar yaratilgan ijod namunasi kimningdir qalbiga yetib bormasa, kelgusida yosh avlodga qolmasa, nima sababdan mingdan ortiq taronalar yaratilmoqda? Yaratilayotgan asarlarda ko'proq soniga emas, sifatiga e'tibor qaratsakgina natija bo'ladi. Nazoratni yanada kuchaytirish, talablarni oshirish kerak deb o'ylayman, menimcha. Yana bir masalaki, Yulduzlar taqdiri tanilish ilinjidagi chala shoirlar, moddiylik dardidagi prodyuserlar, ovoz rejissyorlari va ayrim konsert zallari "xo'jayin"larining qo'lida qolib ketmoqda. Bu aslida tabiiy kechinma deb, baholansada, shu holatda qoldirib bo'lmaydigan jarayondir. Ko'p kuzatamiz ovoz imkoniyatlari keng ijodkorning sahna yuziga chiqishi bir necha uzoq yillar qiyinchiliklar evaziga bo'ladi. Ammo, na bir san'atga aloqador, na ijodkorlik qobiliyati bor "san'atkorlar" erta bilan ekran yuzida paydo bo'la boshlaydi. Menimcha, biz adolat tarozisini to'g'ri o'rnatishimiz lozim. Ishonchingiz komilki, dono xalqimiz, faol ziyolilarimiz, ilm-u ma'rifatga intiluvchi yoshlarimiz, ijodkorlarimiz, sog'lom didli millionlab musiqa shinavandalari hech qachon xalqimiz qalbi to'ridan joy olgan navolarni va yallalarni, kuy-qo'shiqlarini hech qachon «ommaviy madaniyat»ning qabih to'riga inilishi yoki cho'g'iga tushishiga yo'l qo'ymaydi va shou-biznesning salbiy oqibatlaridan saqlaydi! Bugungi yosh avlod tarbiyasiga zid kelmagan san'at namunalarini yaratadilar va milliylikimiz aks etgan kuy qo'shiqlar sonini yanada orttirib boradilar. Zero, musiqa millat tanlamaydi. Qalbga yetib borgan kuy esa mudom hayotdir!

Yana ushbu uchrashuvda shunday san'atkorlar ham borki, unvon olgunicha tinimsiz yelib-yuguradi, hol-joningizga qo'ymaydi. Unvon oldimi, tamom, suvga tushgan toshdek jim bo'lib ketadi. Ulardan unvonga yarasha, xalqning e'tiboriga yarasha ijod qani, deb so'rash o'rinni yoki yo'qmi? Ijodkorning talabi bilan birga

burchi ham bo'lishi kerak emasmi? Shu munosabat bilan musiqa san'ati sohasida faxriy unvonlar, avvalambor, "O'zbekiston xalq artisti", "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" kabi mukofotlar bilan taqdirlash masalasini, bu borada qabul qilingan normativ-meyoriy hujjatlarni tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish vaqti keldi, deb o'ylayman.

Ko'pchiligimiz yaxshi bilamiz, ilgari "Xalq artisti" degan unvon olish uchun san'atkor necha o'n yillar samarali ijod qilishi talab etilardi. Masalan, mashhur hofiz Tavakkal Qodirov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonini olganidan keyin – shunga e'tibor bering – oradan 25 yil o'tib, "O'zbekiston xalq artisti" unvoni bilan taqdirlangan edi. Yaqin o'tmishdan bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Shu ma'noda, unvon berishda san'atkorning faqat to'rtta qo'shig'i emas, uning ijtimoiy faolligi, munosib shogirdlar tarbiyalagani, el-yurt o'rtasidagi obro'-e'tibori, eng muhimi, san'atga sadoqati ustuvor mezon sifatida belgilanishi shart. Boshqacha aytganda, biz bu yuksak unvonlarning nufuzi va obro'sini saqlashimiz lozim.

Bizning xalqimiz – san'atsevar xalq, o'zi sevgan, yoqtirgan ijrochilarni nafaqat televizor yoki sahnada, balki o'zining yaxshi kunlarida, to'y-hashamlarida ham ko'rgisi keladi. Buni hammamiz to'g'ri tushunamiz. Ming afsuski, bugungi Estrada xonandalarining aksariyati hali Yangiyo'lga, hali Shovotga, hali Yangiqo'rg'onga, hali Chiroqchiga to'yga qatnash bilan ovora. Boshqa biron masala bilan ishi yo'q. Albatta, san'atkorda ham oila, bola-chaqa bor, ularning ham hayotiy ehtiyojlari bor. Buniyam to'g'ri tushunamiz. Lekin ijodni pulga, molidunyoga almashtirgan odamdan san'at shafqatsiz o'ch oladi. Oxir-oqibatda har qanday yorqin iste'dod ham so'nib, el-yurt nazaridan qoladi.

Shu o'rinda, yana bir masalaga sizlarning e'tiboringizni qaratmoqchiman. Gap san'atkor odobi, ularning yurish-turishi, kiyinish madaniyati, muomalasi bilan boshqalarga, eng avvalo, yoshlarimizga o'rnak bo'lishi zarurligi haqida bormoqda. Xushovoz xonanda Sanobar Rahmonovanning bir paytlar kuylagan dilbar

qo`shiqklarini tomoshabinlar hozir ham sog`inib eslaydilar. Bu san`atkor teleekranda ham, sahnada ham iboli, hayoli, haqiqiy o`zbek qizining qiyofasini, chinakam obrazini yaratib, qancha-qancha qizlarimizga ibrat bo`lgan edi. Afsuski, bugun televideniye orqali berilayotgan ba`zi kliplarni oila, farzandlar davrasida tomosha qilib bo`lmay qoldi. Har bir harakatida g`arbgaga taqlid sezilib turadigan, ochiq-sochiq kiyingan yoshlarni ko`rib, nahotki shular ham bizning farzandlarimiz, bizning millatimiz vakillari bo`lsa, deb o`ylab qolasan kishi. Albatta, bunday muammolar san`atni muqaddas deb biladigan ustoz ijodkorlarimizni ham qiynayotgani tabiiy. Shundan kelib chiqqan holda, "O`zbekkonsert" qoshida "O`zbekiston xalq artistlari" klubini tashkil etsak, nima deysizlar? Ushbu klub a`zolari muntazam yig`ilishib, yurtimiz va jahon san`at olamida yuz berayotgan ijodiy jarayonlarni muhokama qilib borsa, yuqorida tilga olingan kamchilik va muammolarni yechish, yosh iste`dodlar tarbiyasi, madaniyatimizni ravnaq toptirish bo`yicha yangi g`oya, tashabbus va takliflar bildirib borsa, o`ylaymanki, foydadan xoli bo`lmasdi. Klubning eng faol a`zolari bo`lgan Xalq artistlarini yil yakuni bo`yicha e`tirof etib, rag`batlantirib borishni ham yo`lga qo`yish lozim.

Sizlarga ma`lumki, sobiq ittifoq hududidagi boshqa davlatlardan farqli o`laroq, faqat O`zbekistonda Estrada ijodkorlari aholiga madaniy xizmat ko`rsatishdan topadigan daromadlari bo`yicha soliq to`lash majburiyatidan ozod qilingan. Aytaylik, xonandalarimiz o`zining gastrol-konsert faoliyatini amalga oshirish uchun bir yilda bir marta belgilangan tartibda ma`lum miqdordagi mablag`ni to`lab, litsenziya oladi. Bo`ldi. Boshqa soliq yo`q. Aksariyat qo`shiqchilar mana shu litsenziyaga to`laydigan pulini bitta to`yda topishi ham sir emas. Shuning uchun ba`zan moliya va soliq idoralari tomonidan estrada xonandalarini, boshqa davlatlardagi kabi, daromad solig`iga tortish bo`yicha takliflar bildiriladi. Lekin biz azbaroyi san`atimiz, madaniyatimiz rivojini, xalqimizning ma`naviy saviyasini yuksaltirishni o`ylab, bu takliflarga rozilik bermay kelayapmiz. Hammangiz tushunasiz, salomga yarasha alik ham bo`lishi kerak. Xalqimiz san`atkorlardan yaratilgan ana shunday imkoniyat va imtiyozlarga

yarasha javob kutishga haqli, albatta. Shu munosabat bilan bugun bir fikrni alohida ta'kidlab aytishni zarur, deb hisoblayman. O'zbekistonda adabiyot va san'at, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat va ma'rifat biznesga aylanmasligi shart va biz bunga hech qachon yo'l qo'ymaymiz. Kimda-kim bu sohalarga faqat pul ishlash, faqat iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida kirayotgan bo'lsa, ular, marhamat, tadbirkorlik, biznes sohasiga borsin. Mana, bu borada qancha-qancha imkoniyat va imtiyozlar yaratib beryapmiz – shu sohaga o'tib ishlasin. Lekin ijodiy ishlarga aralashib, o'zini ham, san'at degan muqaddas tushunchani ham bebro' qilmasin. Buni hech kim hech qachon unutishga haqqi yo'q. Albatta, adabiyot va san'at, madaniyat sohalarida yuzaga kelgan jiddiy muammo va kamchiliklarning obyektiv va subyektiv sabablari bor. Bularni barchamiz yaxshi tushunib turibmiz. Bugun biz “Ijodkorlarimiz ishlaymiz”, deb sizlardan, sizlar esa “Davlat yordam bermayapti”, deb bizlardan gina qilib o'tirishimizning mavridi emas. Kelinglar, bugun o'z oldimizga “Kim aybdor?” deb emas, “Kim nima qilishi kerak?” degan savol qo'yaylik. Men bilaman, yuksak madaniyatli, kamtarin insonlar sifatida sizlar ish sharoitingiz yoki moddiy ahvolingiz haqida shikoyat qilmaysiz. Bugungi uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tegishli soha mutaxassislari bilan birgalikda sizlarni qiynayotgan muammolarni atroflicha o'rganib chiqdik va ularning yechimlari bo'yicha bir qancha qaror loyihalarini tayyorladik.

Birinchi: Ma'naviy hayotimizni yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, avvalambor, Bastakorlar, Rassomlar, Teatr arboblari va Jurnalistlar ijodiy uyushmalarining ijtimoiy hayotimizdagi o'рни va nufuzini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakatimiz ijodkor ziyolilarining salohiyatini ro'yobga chiqarish, munosib ish va turmush sharoitini yaratib berishga xizmat qiladigan “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish bo'yicha qaror loyihasi tayyorlanganini ma'lum qilmoqchiman. Ushbu fondni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan 20 milliard so'm miqdorda mablag'

ajratiladi hamda u 2022 yilga qadar barcha soliq va majburiy to'lovlardan ozod qilinadi;

Ikkinchidan: Sizlarga ma'lumki, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil topganiga 70 yil to'lganiga qaramasdan, hozirgacha o'z binosiga ega bo'lmasdan, ijara binolarda faoliyat ko'rsatib kelayotgan edi. Shuni hisobga olib, Adiblar xiyoboni hududida Uyushma uchun alohida bino qurilyapti. Nasib qilsa, mustaqilligimizning 26 yillik bayrami arafasida uni yozuvchilarimiz ixtiyoriga topshiramiz. Ushbu yangi binoda "Ijod" jamoat fondi, shuningdek "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "Yoshlik" jurnallari ham joylashadi. Shuningdek, bu hududda Yozuvchilar uyushmasi a'zolari uchun imtiyozli ipoteka krediti asosida 2 ta ko'p qavatli uy barpo etish, shu tariqa ushbu hududni tom ma'noda adiblar maskaniga aylantirish ko'zda tutilmoqda;

Yaqin kelgusida Zomin va Parkent tumanlarining so'lim va xushmanzara, ilhombaxsh hududlarida ijodkor ziyolilarimiz uchun zamonaviy ijod uylari – kottejlar qurilishi rejalashtirilmoqda. Bu kottejlar ijodiy ish uchun ma'lum muddatga ijaraga beriladi. Ularga yo'llanma bilan boradigan adib va san'atkorlarimiz ham ijod qiladi, ham yoshlarga mahorat sirlaridan saboq beradi, deb umid qilamiz.

Ma'lumki, bir vaqtlar O'zbekiston Milliy universiteti qoshida Oliy adabiyot kursi tashkil etilgan edi. Hozirgi vaqtda uning faoliyati nima uchundir to'xtab qolgan. Sababini surishtirsak, ushbu kurs bitiruvchilariga tegishli davlat guvohnomasini berish masalasida muammo bo'lgan ekan. Men o'ylaymanki, bu kurs yosh iste'dod egalarini tarbiyalab voyaga yetkazishda juda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda bu masalani o'rganib, tegishli taklif kiritishini so'rayman.

Iqtidorli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy kamoloti uchun barcha sharoitlarni yaratib berish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lishi kerak. Shu ma'noda, sizlar bilan yana bir taklifni o'rtoqlashmoqchiman.

Esingizda bo`lsa, ilgari yaxshi bir an`ana bor edi. Ya`ni, madaniyat va san`atning barcha yo`nalishlari bo`yicha iste`dodli yoshlarning respublika miqyosidagi seminarlari o`tkazilardi. Ana shu ezgu an`anani tiklab, adabiyot, teatr va kino, musiqa va tasviriy san`at, jurnalistika sohalariga kirib kelayotgan yosh iste`dod egalari uchun O`zbekiston yosh ijodkorlarining seminarini tashkil etsak, nima deysizlar? Bu ijodiy anjuman yoshlarimizni mahorat sirlariga oshno qilish bilan birga, ular o`rtasida do`stlik va hamkorlik munosabatlarini ham qaror toptirishga xizmat qilgan bo`lardi.

Uchinchidan: O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining to`laqonli faoliyat yuritishini ta`minlaydigan moliyaviy mexanizm, oradan 20 yildan oshiq muddat o`tgan bo`lsa-da, hali-hanuz aniq belgilanmagan. Uyushmani alohida bino bilan ta`minlash masalasi ham necha yillardan beri yechilmay kelmoqda. Shuning uchun O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasining faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini kuchaytirish bo`yicha qaror loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Ushbu qarorda Uyushmaning moliyaviy manbalarini aniqlash, viloyat bo`limlarining moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, Uyushma xodimlarining mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi masalalar ham o`z amaliy ifodasini topadi. Yozuvchilar uyushmasi yil oxiriga qadar yangi binoga ko`chib o`tishi munosabati bilan uning Islom Karimov ko`chasi, 16-“A” uyda joylashgan idorasi Jurnalistlar ijodiy uyushmasiga berildi;

To`rtinchidan: O`zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish bo`yicha ham Prezident qarori tayyorlanmoqda. Unga ko`ra, Badiiy akademiya a`zolarining ijtimoiy ta`minot sharoitlari O`zbekiston Fanlar akademiyasi a`zolarining ijtimoiy ta`minot sharoitlariga tenglashtirilmoqda. Qaror loyihasida yana bir muhim masala, ya`ni rassom va haykaltaroshlar tomonidan yaratilgan asarlarni davlat muzeylariga sotib olish uchun Madaniyat vazirligiga har yili 2 milliard so`m miqdorida mablag` ajratish belgilangan.

Beshinchidan: Bugun biz Bastakorlar uyushmasining faoliyatini tanqid qildik. Lekin ko`p yillar davomida bu Uyushmani o`z holiga tashlab qo`yganimiz,

uning ahvolidan xabar olmaganimiz – buyam haqiqat. Shundan kelib chiqqan holda, Bastakorlar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kompozitor va bastakorlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadini ko'zda tutadigan Prezident qarori loyihasi tayyorlandi va amaliyotga tadbiiq etildi.

Oltinchidan: “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” ham Prezident qarori loyihasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, “O'zbekfilm”, “Qoraqalpoqfilm” va Ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyalarini ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, eng zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, yangi kinoteatrlar qurish ko'zda tutilmoqda. “O'zbekkino” milliy agentligi uchun davlat buyurtmasiga asosan ishlab chiqariladigan badiiy filmlar sonini 2018 yilda 20 ta, 2020 yilda 30 taga, multiplikatsion filmlar sonini esa 2018 yilda 15 ta, 2022 yildan boshlab 50 taga yetkazish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, Agentlik huzurida Milliy kinematografiyani rivojlantirish jamg'armasi tuzilishi belgilangan.

Yettinchidan: 2002 yilda tashkil etilgan O'zbekiston davlat konservatoriyasining bugungi faoliyati, jumladan, qabul kvotalari, o'quv dasturlari va qo'llanmalari, professor-o'qituvchilarning ilmiy va ijodiy salohiyati, moddiy-texnik bazasi, yotoqxonalarining ahvoli talabga javob bermay qolgani bu yerda o'tirgan aksariyat ijodkorlarimizga yaxshi ayon. Bugungi kunda bu yerda 700 nafar o'rniga 1352 nafar talaba tahsil olayotgani ham albatta ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Shularning barchasini hisobga olgan holda, O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha qaror loyihasi ishlab chiqildi. Qarorga ko'ra, bu yerda o'quv binolari yetishmay qolganini inobatga olib, uning Mirzo Ulug'bek tumanidagi Mustaqillik prospektida joylashgan avvalgi binosini qaytarib berish ko'zda tutilmoqda. Bu binoda faoliyat ko'rsatayotgan V.Uspenskiy nomidagi akademik musiqa litseyi o'quvchilari o'zlarining oldingi binosida o'qishni davom ettirishlari uchun imkoniyat yetarli. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha

viloyatlarning eng yaxshi san'at kollejlari negizida O'zbekiston davlat konservatoriyasining ijodiy tayanch markazlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Ayni vaqtda, konservatoriya faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun uning huzurida maxsus fond tuziladi. Bundan tashqari, sobiq Sverdlov konsert zalini ham kapital ta'mirlab, konservatoriya ixtiyoriga beramiz. Konservatoriya yonida unga yangi yotoqxonalar barpo etiladi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi mavjud zamonaviy sanatoriylardan biri konservatoriya va umuman, shu yo'nalishdagi ta'lim muassasalari jamoalariga ajratiladi. Musiqa san'ati sohasidagi ushbu yetakchi oliy o'quv dargohining nufuzi va maqomini yanada oshirish maqsadida Madaniyat vaziri ayni vaqtda konservatoriya rektori vazifasini bajarishi ham qarorda belgilangan.

Sakkizinchidan: Sizlarga ma'lumki, butun dunyoda madaniyat vazirliklari shu mamlakatning yuzi hisoblanib, eng go'zal, eng salobatli binolarda faoliyat olib boradi. Afsuski, bizning vazirligimiz hozirgi vaqtda noqulay bir sharoitda, asosan rasmiy idoralar joylashgan binoda ish olib bormoqda. Bu esa madaniy jamoatchiligimiz, ijod ahlining vazirlikka bema'lol, erkin kirib-chiqishiga, bu yerda turli ijodiy tadbirlar o'tkazishga to'sqinlik qilmoqda. Shuning uchun poytaxtimizning Taras Shevchenko ko'chasidagi 1-uyini – ilgari Tashqi savdo vazirligi joylashgan ko'rkam, tarixiy binoni Madaniyat vazirligiga ajratish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

To'qqizinchidan: Bugungi kunda adabiyot va san'at, umuman madaniyat sohalarida mavjud muammo va kamchiliklarning tub ildizlarini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, ularning aksariyati malakali kadrlar yetishmasligi bilan bog'liq ekani ayon bo'ladi.

Yuqorida madaniyat va san'at muassasalarida mehnat qilayotgan kadrlarning 50 foizdan ziyodi oliy ma'lumotga ega emasligini aytib o'tdik. Ayni vaqtda, respublika teatrlarida 45 foiz ijodiy xodimlar tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lmagan holda faoliyat yuritayotgani, tumanlarda joylashgan bolalar musiqa va san'at maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarning 72 foizi o'rta maxsus

ma'lumotga ega ekani ham barchamizda jiddiy tashvish uyg'otadi. Yaqinda Qo`qon shahar musiqali drama teatriga borganimizda ham xuddi shunday ahvolga duch keldik. U yerda ishlayotgan jami 53 nafar ijodiy xodimning atigi 11 nafari oliy ma'lumotga ega, xolos. Qolgan 42 nafarini o`rta maxsus va o`rta ma'lumotga ega xodimlar tashkil etadi. Albatta, bu muassasalarda ishlayotgan yosh yigit va qizlar astoydil intilib harakat qilayotgan bo`lsa-da, baribir ularning faoliyatida zarur bilim va malaka yetishmayotgani sezilib turibdi. Shuning uchun ham avvalo madaniyat va san`at yo`nalishidagi oliy o`quv yurtlari, litsey va kollejlari, musiqa va san`at maktablarining faoliyatini tubdan qayta ko`rib chiqish zarur. Mana, yurtimizda qancha bolalar musiqa va san`at maktablari bor, ayni vaqtda milliy adabiyotimiz va san`atimizning atoqli namoyandalari nomida yangi ijodiy markazlar tashkil qilyapmiz. Xo`sh, ularda kimlar mehnat qilyapti? Yoshlarimizga ijod sirlarini kimlar qay darajada o`rgatyapti? Taniqli san`atkorlarimiz, yozuvchi va shoirlarimizning bu maktablar bilan aloqasi qanday?

Xabaringiz bor, yaqinda yurtimizda atoqli san`atkor Komiljon Otaniyozovning 100 yillik yubileyi katta tantana bilan nishonlandi. Ushbu tadbirlarda bu yerda o`tirgan ko`pchilik ijodkorlarimiz ishtirok etdi. Qo`shni respublikalardan – Qozog`istondan, Tojikistondan mehmonlar keldi. Mashhur hofiz Jo`rabek Murodovning samimiy so`zlarini hammamiz hayajon bilan eshitdik. Qarang, Komiljon Otaniyozovning nafaqat O`zbekistonda, balki butun O`rta Osiyo bo`yicha qancha-qancha shogirdlari bor ekan. Shu gaplarni eshitganda, shaxsan men, buyuk hofizimizning qo`shig`idan ham shogirdi ko`p ekan, deb o`ylab qoldim. Qani, ayting-chi, bugun qaysi Xalq artistimiz o`zining shunday munosib shogirdlari borligi, shogirdparvarligi bilan maqtana oladi? Shu savollardan kelib chiqib, sizlarga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman. Respublikadagi har bir musiqa va san`at maktabiga, ijodiy markazlarga taniqli adabiyot, san`at va madaniyat namoyandalarini badiiy rahbar yoki direktor sifatida tayinlasak, ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bersak, nima deysizlar? Biz xalqimizning noyob merosi bo`lgan maqom san`atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo

bo`ylab keng targ`ib qilish, kerak bo`lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak.

Sizlarga ma`lum, hozirgi vaqtda O`zbekiston davlat san`at va madaniyat institutining Nukus shahridagi filiali muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatyapti. Shu ijobiy tajribani davom ettirgan holda, Qo`qon shahrida ham mazkur institutning filialini tashkil etyapmiz. Bu o`quv yurti Farg`ona vodiysi viloyatlari uchun yuqori malakali madaniyat xodimlarini tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Qo`qon shahrida san`at ahli uchun yangi ko`p qavatli turar joy binosi ham qurib foydalanishga topshiriladi. Yuqorida zikr etilgan barcha masalalarni kompleks hal etish bo`yicha Bosh vazir A.Aripov, Davlat maslahatchilari X.Sultonov, A.Yunusxo`jayev, oliy va o`rta maxsus ta`lim vaziri I.Majidov, xalq ta`limi vaziri U.Inoyatov, madaniyat vaziri M.Muratov, Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi raisi B.Zokirov bir oy muddatda tegishli takliflar kiritishlari zarur.

O`ninchidan: Bugun ma`rifatli dunyoda shunday an`ana mavjudki, yirik kompaniyalar, banklar, firmalar madaniy tashkilotlarga homiylik qilishni o`zlari uchun sharaf deb biladilar. Ba`zan, qani edi, bizda ham shunday homiylar ko`paysa, deb orzu qilaman. Ajdodlarimiz o`z davrida yaratgan ilmiy va ijodiy maktablarning vujudga kelishida avvalo ana shunday ma`rifatparvar homiylarning hissasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgani yaxshi ma`lum. Shundan kelib chiqqan holda, yana bir taklifni o`rtaga tashlamoqchiman. Yurtimizdagi yetakchi ijodiy tashkilotlarning “do`stlari klublari” ni tashkil etsak, ularga yirik korxonalar, bank va kompaniyalarni homiy sifatida biriktirib qo`ysak, shartnoma asosida ularning doimiy hamkorligini yo`lga qo`ysak, nima deysizlar? Masalan, Milliy bank rahbari Suxrob Xolmurodov biz O`zbekiston davlat konservatoriyasini otaliqqa olamiz, “Konservatoriyaning do`stlari klubi”ni tuzib, unga rahbarlik qilamiz, degan tashabbus bilan chiqyapti.

Olmaliq kon-metallurgiya kompaniyasi rahbari, senator Aleksandr Farmonov esa “Biz O`zbekiston davlat san`at va madaniyat institutining do`stlari

klubiga rahbarlik qilsak”, degan taklifni bildiryapti. Xalq banki “O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasining do`stlari klubi”ga rahbarlik qilmoqchi. Yaqinda faoliyati to`xtab qolgan Teatr arboblari uyushmasini qayta tiklash to`g`risida takliflar bildirilmoqda. Bu uyushma faoliyatiga “O`zpaxtasanoateksport” xolding kompaniyasining homiylik qilish haqidagi tashabbusini biz albatta qo`llab-quvvatlaymiz. “O`zoziqovqatsanoatxolding” xolding kompaniyasi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga homiylik qilmoqchi.

“O`zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati O`zbek Milliy akademik drama teatri bilan yonma-yon joylashgan. Kompaniya rahbariyati “Qo`shninga yordam ko`rsataman, Milliy teatrning do`stlari klubiga rahbarlik qilaman”, deyapti. Rahmat ularga. Shular qatorida Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston davlat akademik katta teatriga – “O`zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi, O`zbek davlat drama teatriga – O`zbekiston yoshlar ittifoqi, Muqimiy nomidagi O`zbekiston davlat musiqali teatriga – “O`zsanoatqurilishbank”, Respublika yosh tomoshabinlar teatriga – Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Respublika qo`g`irchoq teatriga – “O`zeltexsanoat” kompaniyasi homiylik qilish istagini bildirmoqda. O`zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatrini esa – “Kapitalbank”, O`zbekiston akademik rus drama teatrini – “O`zagrosug`urta” kompaniyasi, O`zbekiston yoshlar teatrini – “O`zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati, Respublika satira teatrini – “O`zbekiston temir yo`llari” aksiyadorlik jamiyati, “Tomosha” bolalar teatr-studiyasini – “Aloqabank”, “Diydor” teatr-studiyasini – “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat banki otaliqqa olmoqchi.

Xuddi shu asosda Bastakorlar uyushmasiga – “Asaka bank”, Rassomlar uyushmasiga – “O`zvinosanoatxolding” kompaniyasi, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabiga – “Ipoteka bank”, Milliy rassomlik va dizayn institutiga – “O`zdonmahsulot” kompaniyasi, “O`zbekkino” milliy agentligiga – “O`zavtosanoat” kompaniyasi, O`zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasiga – Respublika tovar-xomashyo birjasi homiy bo`lish tashabbusi bilan chiqmoqda.

Mamlakatimizdagi yetakchi muzeylarni, avvalo Adabiyot muzeyini moliyaviy qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etish bo'yicha Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi raisi Botir Parpiyev amaliy takliflar bildirmoqda.

Ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat hokimliklari o'z hududlaridagi teatrlarga homiylik qilib, ularning faoliyatini kuchaytirish uchun 1 milliard so'mdan mablag' ajratish niyatida ekani barchamizni xursand qilmoqda.

“O'tgan kunlar” filmida Yusufbek hoji aytganidek, “Qarang, bizning shunday ma'rifatparvar rahbarlarimiz bor ekan-u, biz bexabar yurgan ekanmiz” [10]. Kelinglar, barchamizning nomimizdan ularga rahmat aytib, ishlariga muvaffaqiyat tilaylik.

Men ishonaman, bu rahbarlarimiz ijodiy uyushmalarga nafaqat moddiy, balki eng avvalo, ma'naviy yordam beradilar. Ya'ni, oila a'zolari, mehnat jamoalari bilan birgalikda teatrlarga, kino va ko'rgazma zallariga, konsertlarga borib, boshqalarga namuna ko'rsatsalar, nur ustiga nur bo'lardi.

Yana bir muhim masala – ijodiy sohalar, jumladan, ommaviy axborot vositalarini bugungi talablar asosida yanada rivojlantirish maqsadida soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha belgilangan qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar muddatini yana 5 yilga uzaytirish chora-tadbirlari ko'rilmoqda.

Ijod ahlini qiynab kelayotgan muammolardan biri – bu uy-joy masalasi bilan bog'liq. Mana shu dolzarb muammoni yechish uchun Toshkent va Nukus shaharlarida, barcha viloyatlar markazlarida imtiyozli kredit asosida “Ijodkorlar uylari” barpo etilib, bu uylardan adiblar, rassomlar, aktyor va rejissyorlar, kompozitorlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ommaviy axborot vositalarining faol vakillariga, shu jumladan, iste'dodli yosh ijodkorlarga kvartiralar ajratiladi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda pensiya yoshidagi ijodkorlar eng kam ish haqining 2 barobaridan ko'p miqdorda qalam haqi olgan taqdirda, ularning pensiyasidan 50 foiz mablag'ni ushlab qoladigan tartib mavjud. Bir vaqtlar uzoqni ko'zlamagan ba'zi mansabdorlar tomonidan joriy etilgan bu tartib ayni ijodiy

¹⁰ Abdulla Qodiriy “O'tkan kunlar” XX asr adabiyoti 2016

kamolotga yetgan ijodkorlarimizning rag`batini so`ndirishga xizmat qilayotgani sir emas.

Biz jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo`yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz. Ayni paytda shu maqsadni o`zida ifoda etgan “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to`g`risida” qaror loyihasi tayyorlanayotganini sizlarga ma`lum qilmoqchiman.

Hammangizga ma`lum, matbaa korxonalarini uchun zarur qog`oz va bo`yoq mahsulotlari chetdan valyuta evaziga olib kelinayotgani kitob, gazeta va jurnallar narxining qimmatlashishiga sabab bo`lmoqda. Shu bois, biz respublikamizda zamonaviy qog`oz sanoatini yo`lga qo`yish bo`yicha faol ish olib boryapmiz. Bu borada yaqinda Xitoy davlatiga bo`lgan safarimiz chog`ida “Sin paper industri” kompaniyasi va boshqa tashkilotlar bilan kelishuvga erishildi.

Madaniy hayotimiz ravnaqi yo`lida g`oyat muhim ahamiyatga ega bo`lgan bu ishlarni amalga oshirish, ro`yobga chiqarishda siz, muhtaram ijodkor ziyolilarimiz faol ishtirok etib, o`z munosib hissangizni qo`shasizlar, deb ishonaman. Millionlab odamlarning e`tiborida bo`lgan, madaniyat, adabiyot va san`at degan muqaddas dargohga qadam qo`ygan har bir ijodkor, hech shubhasiz, avvalo o`z xalqining qalbiga quloq solib, uning dardiga darmon bo`lishga intiladi. Sizlarning barchangizni men o`z ijodiy faoliyati bilan mana shunday hayotiy e`tiqodga umrbod amal qilib kelayotgan fidoyi insonlar, deb bilaman. Men shu o`rinda avval bildirgan bir fikrimni yana takror aytmoqchiman. “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug` ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san`atimiz ham albatta bo`ladi”. [11]

¹¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda “Milliy madaniyatimiz, adabiyot va san`atimizni rivojlantirish bilan bog`liq dolzarb masalalari” mavzusidagi so`zlagan nutqi

1.2 O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV TOMONIDAN TUZILGAN 2017-2021 YILLARGA MO`LJALLANGAN HARAKATLAR STRATEGIYASIDA MADANIYAT VA SAN`AT MASALALARI

Xalqimizning milliy o`zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an`ana va urf-odatlarini o`zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san`ati atoqli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlardan asrlarga o`tib kelmoqda. Xalqimizning yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan ushbu noyob san`atni asrab-avaylash va rivojlantirish bo`yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yurtimizda “Alpomish” dostonining ming yilligi keng nishonlangani, Termiz shahrida bu ulug` badiiy obida sharafiga, Samarqand shahrida atoqli baxshilarimiz xotirasiga bag`ishlangan yodgorlik majmualari bunyod etilgani, davlatimiz tomonidan “O`zbekiston Respublikasi xalq baxshisi” faxriy unvoni ta`sis qilinganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda Termiz shahrida baxshichilik maktabi, Respublikamizdagi bolalar musiqa va san`at maktablarida folklor sinflari faoliyat ko`rsatmoqda. Yurtimizda ko`p tomlik “Qoraqalpoq folklori” to`plamlari chop etildi, 100tomlik “O`zbek xalq ijodi yodgorliklari” majmuasi nashr etilmoqda. Baxshi-shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o`rganish ishlari davom etmoqda.

Yaqinda Termiz shahrida ilk bor o`tkazilgan Xalqaro baxshichilik san`ati festivali xalqaro miqyosdagi yirik madaniy hodisa sifatida keng e`tirof etilgani alohida e`tiborga loyiq.

Ayni vaqtda hozirgi globallashuv davrida, tijorat vositasiga aylangan “ommaviy madaniyat”, shou-biznesning salbiy ta`siri tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda folklor san`atiga e`tibor va qiziqish susayib borayotgani, ko`p joylarda unutilib, himoya va muhofazaga muhtoj bo`lib turgani kuzatilmoqda.

Xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo`lgan baxshichilik san`atini yanada rivojlantirish, uning milliy madaniyatimiz va san`atimizdagi o`rni

va ahamiyatini yuksaltirish, yosh avlodni milliy o`zlikni anglash, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi va Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida davlat muassasasi shaklida Respublika Baxshichilik san`ati markazini (keyingi o`rinlarda-Markaz) hamda uning huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan Baxshichilik san`atini rivojlantirish jamg`armasini (keyingi o`rinlarda – Jamg`arma) tashkil etish haqidagi takliflari ma`qullandi.

2. Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

❖ Baxshichilik san`atining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini chuqur o`rganish va mustahkamlash;

❖ Sohada shakllangan ijodiy maktablarning o`ziga xos ijro uslublari, “ustoz-shogird” an`analarini qayta tiklash va rivojlantirish;

❖ Baxshi-shoirlar, folklorshunos olimlar, o`qituvchi va mutaxassislarning ijodiy va ilmiy faoliyatini qo`llab-quvvatlash;

❖ Madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san`at maktablari va boshqa ta`lim muassasalari qoshida baxshichilik san`ati to`garaklarini tashkil etish;

❖ Baxshi-shoirlar ijodiga keng yo`l ochib berish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta`minlash;

❖ Baxshichilik san`atining sara namunalarini to`plash va fondini yaratish, ularning audio va video variantlarini ko`paytirish, bu sohani yurtimizda va dunyoda keng targ`ib etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, televideniye va Internet imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

❖ Baxshichilik san`ati yo`nalishida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bu borada o`zaro tajriba almashishni yo`lga qo`yish, jumladan, turli xalqaro anjumanlar va tanlovlar, konsertlar va mahorat darslarini tashkil etish kabilar shular jumlasidandir.^[12]

¹² O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 31-may

3. Baxshichilik san'atini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

❖ Moliyaviy va tashkiliy yo`nalishlarda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida baxshichilik san'atini yanada rivojlantirishga ko`maklashish;

❖ Mamlakatimizda faoliyat ko`rsatayotgan baxshi-shoir, oqin va jirolarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash;

❖ Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni baxshichilik san'atiga oid zarur adabiyotlar, o`quv qo`llanmalar va davriy nashrlar bilan ta'minlash;

❖ Madaniyat va san'at muassasalari qoshidagi baxshichilik to`garaklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zarur cholg`ular va jihozlar bilan ta'minlash;

❖ Baxshichilik san'ati bilan bog`liq ilmiy-tadqiqotlar, nashr ishlari hamda kompleks ilmiy ekspeditsiyalarni moliyalashtirish;

❖ Baxshichilik san'atiga doir homiylikni rivojlantirish, sohaga xorijiy sarmoya va grantlarni jalb etish;

❖ Qonunchilikda belgilangan manbalardan tushadigan mablag`larni jamg`arish, ulardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash singari vazifalar shular jumlasidandir. [13]

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Toshkent shahri, 2017-yil 31-may

II BOB. O`ZBEKISTONDA MILLIY MADANIYATNI YANADA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING DOLZARBLIK AHAMIYATI

2.1. Xalqimizning yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash masalalari

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida: 2019–2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va Konsepsiyaning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

Madaniyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani, ushbu sohadagi institutsional tizimni va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish;

Tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash;

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an'analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

Aholi, jumladan, yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va kengaytirish; madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib etishda innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

Fuqarolarning, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishi va madaniy xizmatlardan foydalanishda ijtimoiy tengligini ta'minlash; madaniy sohada o'zaro samarali xalqaro munosabatlarni

tashkil etish va rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, bu borada teng huquqlilik va inson huquqlarini hurmat qilishga alohida e'tibor qaratish;

Qabul qilinayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasiga oid qarorlarning ushbu sohadagi yagona davlat siyosatiga mosligini ta'minlash;

Madaniyat va san'at muassasalarining to'laonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, ularning moddiy resurs bazasini yanada mustahkamlash, obyektlarni saqlash hamda muhofaza qilishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish [¹⁴] kabilar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, endilikda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat va aholi dam olish markazlari negizida madaniyat markazlari tashkil etilishi ham Konsepsiyada belgilab qo'yilgan va shu bilan birgalikda quyidagilar madaniyat markazlarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish;

Xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish;

Bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

¹⁴ 2019–2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent shahri 2018-yil 28-noyabr

Adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o'tkazish;

Tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) miqyosidagi festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

Ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish markazlarning vazifari hisoblanadi.

Bundan tashqari, qisqa muddatda, madaniyat markazlari faoliyatini, jumladan, madaniyat markazlarini yangi qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlarini tashkil etish, shuningdek, samarasiz faoliyat yuritayotgan madaniyat markazlarini maqbullashtirish to'g'risida ham bir qator qarorlar qabul qilindi.

Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining **"Madaniyat va san'at fidokori"** ko'krak nishonini ta'sis etilishi ham bayon etilgan.

Madaniyat sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari, ularni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning vakolatlari; madaniyat sohasida fuqarolar, millat va elatlarning huquq hamda erkinliklari; madaniy obyektlarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartiblari, shuningdek, ularni moliyalashtirish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari; ijodiy uyushma va birlashmalarning huquqiy maqomi, madaniyat sohasidagi xodimlarning ijtimoiy himoyasi; madaniy almashuv, xalqaro tashkilot va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik, madaniyat obyektlari va san'at asarlarini ommalashtirish kabi ko'plab vazifalar belgilangan.

Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining **“Xalq cholg`ulari ijrochilari”**, Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi **“Milliy raqs ijrochilari”** va Yunus Rajabiy nomidagi **“Yosh maqom ijrochilari”** respublika ko`rik-tanlovlari an`anaviy ravishda o`tkazish to`g`risida qaror qabul qilindi.

Yuqorida nomlari keltirilgan respublika ko`rik-tanlovlari: **“Xalq cholg`ulari ijrochilari”** ko`rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning iyun oyida;

Mukarrama Turg`unboyeva nomidagi **“Milliy raqs ijrochilari”** ko`rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2019-yilning oktyabr oyida;

Yunus Rajabiy nomidagi **“Yosh maqom ijrochilari”** ko`rik-tanlovi ikki yilda bir marta, dastlab 2020-yilning aprel oyida o`tkaziladi;

Ushbu respublika ko`rik-tanlovlari g`oliblarining bir nafardan yakka ijrochilari tegishli yo`nalishi bo`yicha oliy ta`lim muassasasining bakalavriat bosqichiga qabul kvotasiga qo`shimcha davlat granti asosida qabul qilinishi ham yangi iste`dodlarni qo`llab-quvvatlash, ularni rag`batlantirish yo`lidagi dastlabki qadamdir.

O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining har yili 21-27 mart kunlari **“Teatr tomoshalari haftaligi”** ni va uning doirasida madaniy-ma`rifiy tadbirlar, jumladan, teatr rassomlarining ko`rgazmalari, teatr liboslari va dekoratsiyalari namoyishlarini tashkil qilish, tomoshabinlar bilan ijodkorlar o`rtasida muloqotlar o`tkazish hamda aholining shu kunlari davlat teatrlariga bepul kirishi to`g`risida ham qaror qabul qilindi.

O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda: Davlatlararo qo`shma loyiha doirasida Buyuk ipak yo`lining mamlakatimizdan o`tgan qismini **“Ipak yo`li: Zarafshon daryosi vohasi”** va **“Ipak yo`li: Farg`ona – Sirdaryo havzasi”** nomi ostida YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro`yxatiga; o`zbek xalqining ko`hna va betakror san`ati namunasi bo`lgan Xorazm **“Lazgi”**sini **“Xorazm raqsi – Lazgi”** nomi ostida YUNESKO ning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining

representativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishi haqida ham bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan.

2.2 Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalarning ijrosi hususida

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" [15]. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamli bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan video-selektor yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan masalalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

¹⁵ Shavkat Mirziyoyevning BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan



.^[16]

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular bo'yicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o'tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

¹⁶ Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda "Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida" o'tkazilgan video-selektor yig'ilishidagi nutqidan

Ikkinchi tashabbusga doir masalalarga e'tibor qaratar ekanmiz, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta'lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko'rsatkichi respublika bo'yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog'istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos. O'lis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi. Bunday tadbirkorlarga O'zmilliy bank tomonidan "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi. Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g'olib bo'lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o'quv yurtlarining maxsus sirtqi bo'limlarida maqsadli o'qitish yaxshi natija berishi qayd etildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o'rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug'ullanish bo'yicha innovatsion ko'nikmalar beriladi, "startap" loyihalarga yordam ko'rsatiladi. Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo'lishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog'i bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o'yinlari markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarda bolalik chog`idan kitobga mehr uyg`otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo`llarida mustahkam zamin bo`ladi. Lekin ko`plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Oldingi kutubxonalar o`rnida tashkil etilgan "Axborot-resurs markazlari" o`zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi. Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlar sonidan kelib chiqqan holda joylarga qo`shimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga "Kitob karvoni" loyihasi doirasida badiiy, ma'rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog`iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo`lmagan miqdorda yetkazib berish bo`yicha topshiriq berdi. Yig`ilishda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do`koni tashkil etishi kerakligi ta`kidlandi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko`chma kitob pavilyonlarini joylashtirish, Qoraqalpog`iston Respublikasi va barcha viloyatlarda "Bibliobus"larni yo`lga qo`yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko`rsatish vazifasi qo`yildi.

Yig`ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalari ham muhokama qilindi. Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zich yashaydigan, mehnat resurslari ko`p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarni tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o`rni yaratish ko`zda tutilgan. Prezidentimiz mehnat qilish istagidagi ayollar ish o`rinlari sonidan ancha ko`pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta`kidladi.

Mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, fuqarolarimizning o`z hayotidan rozi bo`lib, ertangi kunga qat'iy ishonch bilan munosib hayot kechirishini ta`minlash bo`yicha oldimizga qo`ygan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirishda jamiyatning eng muhim bo`g`ini hisoblangan mahalla institutining o`rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mahalla jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy urf-odat va qadriyatlarni asrab-avaylash, oilalar jipslliligini ta'minlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, aholining kundalik muammolarini hal etishda xalqimizga eng yaqin ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Shu bilan birga, fuqarolar yig'inlarining uyma-uy yurib aholi muammolarini aniqlab, og'irini yengil qilish borasida davlat idoralari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar bilan hamkorligini kuchaytirish, moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash hamda soha xodimlari mehnatini munosib baholash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etilmoqda.

O'zbek xalqining milliy etno ong xususiyatlariga ta'rif berganimizda uning sifat va fazilatlarini tarannum etuvchi, kishilarning bir-birlariga bo'lgan insoniy munosabatlari, do'st-birodarliklari, axl-ittifoqlilari, bir-birlariga sadoqatliklarini anglashlikni e'tirof etishimiz kerak. Bu ijtimoiy integratsiyaning universal mexanizmi – maxallaning o'rni beqiyos bo'lib, u qo'shnilarni xamjihatlik va xalq an'analariga sobit izdoshlik asoslarida birlashtiradi. Ularning milliy yoki diniy mansubligining axamiyati yo'q. Maxalla - Buyuk ipak yo'lidagi Movarounnaxr shaxar madaniyatining ming yillik maxsulidir.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, yoshlarimiz ongida qo'ni-qo'shnichilik, maxalladoshlik tushunchalarining tub ma'nosini ochib berishimiz kerak. Zero, bunday an'ana bizning mustaqillik davrimizga kelib juda xam kengayib ketdi. Darxaqiqat, xozirgi kunda u nixoyatda chuqur ijtimoiy ma'no kasb etib, shaxar bilan shaxar, qishloq bilan qishloq, mamlakat bilan mamlakatlar o'rtasida chinakam ko'ni-qo'shnichilik yuzaga keldiki, uning oqibat natijalari – o'zaro yordam, iqtisodiy xamda siyosiy bir-birini qo'llab-quvvatlash, xalqlar tinchligi va mustaqilligini saqlab turishlik darajasiga ko'tarildi. Bu masalaning sotsial-ijtimoiy tomoni mavjudligining yaqqol namunasidir.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi davr dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan xam kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir¹⁷. Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga sobit, e'tiqodiga, mustaxkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlargina o'z Vatani, xalqi manfaatlarida yonib yashashi va sadoqatli mexnat qilishi bilan o'zligini anglab yetishga intilmog'i kerak. Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan taraqqiyoti bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va o'tmish tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadalarda foydalanishga yo'l qo'ymaslik barchamizning muqaddas burch va vazifalarimiz qatorida bo'lishi zarur.

Maxalla turmush madaniyatini yuksaltirish borasida shaxsan Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning o'zlari tomonidan o'ta talabchanlik bilan ish yuritayotganligini ko'rib quvonchlarga to'lasan kishi. Ularning bosh-qosh bo'lishi natijasida unitilgan yoxud unitila boshlagan ko'plab qadriyatlarimiz tiklanib, o'rin-o'rniga qo'yila boshladi. Birgina maxalla-ko'ylar qadriyatiga, ularning obro' e'tiborini ko'tarish, faoliyatlarini jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan bag'oyat ibratli ishlarni olib ko'raylik. Yurtboshimiz qayerga bormasin maxalla kishilaridan qo'l ochib duo qilishlarini so'rashi, vaqti-vaqti bilan maxalla oksoqollarini yig'ib, maslaxatlashishida chuqur ramziy ma'no bor. Bu xech shubxasiz maxalla- ko'y qadriyatlarini e'zozlash, qadrlash va ardoqlashning ibratli namunasidir. Maxalla-ko'y bilan bog'liq qadriyatlar xaqida so'z borganda Prezidentimizning bir fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Maxalla orqali ko'p ishlarni qilish mumkin. Yoshlarga munosib tarbiya berishda, qadriyatlarimizni tiklash va ommalashtirishimizda men sizdek tabarruk oqsoqollarga ishonaman va tayanaman"^[18]. Bu keltirilgan ko'chirmadagi "Men sizdek tabarruk oqsoqollarga ishonaman va tayanaman iborasiga e'tibor bersak, unda xalqimizning "Qarisi bor

¹⁷ И.А.Каримов Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент., Маънавият. 2008

¹⁸ "Халқ сўзи" -2016 й . 4-сон

uyning parisi bor”, “Qaring bor-boring bor” kabi keksalarimizning xayotda tutgan o`rinlarini, yoshlar tarbiyasidagi mavqelari, umuman keksa avlodning qadr-qimmatidagi yuksak ifodasini topgan, deya olamiz. Prezidentimiz nigoxlari tushgan, nazar va e`tiborlari bilan qaralgan yuzlab maxallarimiz faoliyatida tub burilishlar yuz berdi. Ular yurtimiz tayanchi, xalqimiz bahtiga, e`zosi va bahtiga aylana boshladi. Darxaqiqat, qadim-qadimdan maxalla tinch bo`lsa-yurt tinch bo`lgan, maxalla osoyishtaligi – el osoyishtaligini ta`minlagan. Yuqorida qayd etganimizdek, maxalla odob, ibrat va namunaviy qadriyatlar go`shasi xisoblangan. Zero, maxalla tinch bo`lsa, el-yurt tinch bo`libgina qolmasdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy, tarbiyaviy ishlar xam maqsadga muvofik bo`ladi. Xa, maxalla moziydan axloqiy, ruxiy tarbiya o`chogi o`rganilgan meyor – mezon o`lchovi bo`lganu, ammo yozilmagan kitobdir^[19].

Maxalla turmush madaniyati va bu maqsadda amalga oshirilayotgan ommaviy tadbirlarning cheki yo`qligini biz teran tushinib yetdik. Va nixoyat, bu jamiyatimizning asosiy poydevori xisoblanmish Vatan ostonasida ijtimoiy xayotining noyob sarchashmalari, sharq xalqlari tafakkurining noyob maxsuli sifatida unda yashovchi axoli uchun o`z – o`zini boshqaruv tizimiga, eng muximi, turmushning yozilmagan, lekin xayotiy tajribalarda sinalib, insoniylikni sharaflaydigan, qadriyatlarni, ilg`or an`anlarni e`zozlaydigan yurt tinchligi, obodonligi, jamiyat taraqqiyotiga va insonni shakllantirishga xizmat qiladigan nizomlarga amal qilib yashashni majburiyatga aylantirib borgan, shu asosda maxalla asrlar osha axloqiy – ma`naviy tarbiyani og`ishmay amalga oshiruvchi xalq dorilfununi vazifasini o`tab kelmoqda.

O`zbek xalqining milliy etno ong xususiyatlariga ta`rif berganimizda uning sifat va fazilatlarini tarannum etuvchi, kishilarning bir-birlariga bo`lgan insoniy munosabatlari, do`st-birodarliklari, axl-ittifoqliklari, bir-birlariga sadoqatliklarini anglashlikni e`tirof etishimiz kerak. Bu ijtimoiy integratsiyaning universal mexanizmi – maxallaning o`rni beqiyos bo`lib, u qo`shnilarni xamjixatlik va xalq

¹⁹ Малик Мурод “Ўзбек кадриятлари” Тошкент., “Чўлпон” 1995 й.

an'analariga sobit izdoshlik asoslarida birlashtiradi. Ularning milliy yoki diniy mansubligining axamiyati yo`q. Maxalla - Buyuk ipak yo`lidagi Movarounnaxr shaxar madaniyatining ming yillik maxsulidir.

Shuni aloxida ta'kidlash joizki, yoshlarimiz ongida qo`ni-qo`shnichilik, maxalladoshlik tushunchalarining tub ma'nosini ochib berishimiz kerak. Zero, bunday an'ana bizning mustaqillik davrimizga kelib juda xam kengayib ketdi. Darxaqiqat, xozirgi kunda u nixoyatda chuqur ijtimoiy ma'no kasb etib, shaxar bilan shaxar, qishloq bilan qishloq, mamlakat bilan mamlakatlar o`rtasida chinakam ko`ni-qo`shnichilik yuzaga keldiki, uning oqibat natijalari – o`zaro yordam, iqtisodiy xamda siyosiy bir-birini qo`llab-quvvatlash, xalqlar tinchligi va mustaqilligini saqlab turishlik darajasiga ko`tarildi. Bu masalaning sotsial-ijtimoiy tomoni mavjudligining yaqqol namunasidir.

Barchamizga ma'lumki, xozirgi davr dunyoda g`oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan xam kuchliroq bo`lib borayotgan davrdir^[20]. Bunday vaziyatda o`z mustaqil fikriga sobit, e'tiqodiga, mustaxkam iroda va dunyoqarashiga ega bo`lgan insonlargina o`z Vatani, xalqi manfaatlarida yonib yashashi va sadoqatli mexnat qilishi bilan o`zligini anglab yetishga intilmog`i kerak. Ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan taraqqiyoti bilan boyitib borish, o`zligimizni chuqurroq anglash, milliy g`oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va o`tmish tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishga yo`l qo`ymaslik barchamizning muqaddas burch va vazifalarimiz qatorida bo`lishi zarur.

Maxalla turmush madaniyatini yuksaltirish borasida shaxsan Prezidentimiz, hukumatimiz o`ta talabchanlik bilan ish yuritayotganligini ko`rib quvonchlarga to`lasan kishi.

Mamlakatimizning boy va qadimiy tarixidan ma'lumki, ajdodlarimiz tomonidan mahallalarni obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish

²⁰ И.А.Каримов Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент., Маънавият. 2008

eng bebaho qadriyat va an'analardan hisoblanadi. Mazkur qadriyatlarimizni izchil davom ettirgan holda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini barcha hududlarda amalga oshirish orqali qishloq aholisi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi, yoshlarni xayrli ishlarga da'vat etish alohida ahamiyat kasb etadi. Har kim o'zi yashaydigan uy, mahalla va qishloqni obodonlashtirishda hissasini qo'shsa, yurtimiz obod bo'ladi, obod yurtda yashaydigan odamlar kayfiyati yaxshi bo'lishi ta'minlanadi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatimiz aholisining 49 foizi yashaydigan qishloq joylarda salmoqli demografik, mehnat va iqtisodiy salohiyat jamlanishiga qaramasdan, ular uchun zarur sharoitlar yaratib berilmagan, turmush darajasi va sifatini oshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Jumladan, so'nggi yillarda paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hissasi yuqori bo'lgan dehqon-fermerlarning va boshqa toifadagi aholining hayotiy-maishiy ehtiyojlari to'liq ta'minlanmagan.

Bunday holat qishloq aholi punktlarini tubdan qayta yangilamasdan va uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirmasdan, mamlakatimizni zamonaviy rivojlangan davlatga aylantirishga to'siq bo'lmoqda. Xususan, hududlarga tashriflar jarayonida joylardagi haqiqiy ahvol bilan tanishish, bevosita mahalla va xonadonlarga kirib borish hamda aholi bilan muloqot natijalari quyidagi tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Prezidentimiz aholining uy-joy va bino-inshootlarni zamonaviy meyorlarga amal qilmagan holda, tartibsiz va o'zboshimchalik bilan qurib olishi ham oddiy holatga aylanganiga e'tibor qaratdi. Ta'kidlanganidek, qishloq aholisi "bizga shu ham bo'laveradi", degan fikrga ko'nikib, o'zining ko'chasi, uy-joyi va hovlisini obod qilishga umuman e'tibor bermay qo'yganligi kishi dilini hira qiladi. Mana shunday mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi "Obod qishloq" dasturi to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Bu farmon orqali mustaqil va muqaddas vatanimizda inson va uning qadr-qimmati aziz ekanligi, islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun ekanligini dildan his etasan kishi.

Birgina maxalla-ko`ylar qadriyatiga, ularning obro` e`tiborini ko`tarish, faoliyatlarini jadallashtirish borasida amalga oshirilayotgan bag`oyat ibratli ishlarni olib ko`raylik. Yurtboshimiz qayerga bormasin maxalla kishilaridan qo`l ochib duo qilishlarini so`rashi, vaqti-vaqti bilan maxalla oksoqollarini yig`ib, maslaxatlashishida chuqur ramziy ma`no bor. Bu xech shubxasiz maxalla-ko`y qadriyatlarini e`zozlash, qadrlash va ardoqlashning ibratli namunasi. Maxalla-ko`y bilan bog`liq qadriyatlar xaqida so`z borganda Prezidentimizning bir fikrlarini keltirish o`rinlidir: “Maxalla orqali ko`p ishlarni qilish mumkin. Yoshlarga munosib tarbiya berishda, qadriyatlarimizni tiklash va ommalashtirishimizda men sizdek tabarruk oqsoqollarga ishonaman va tayanaman”^[21]. Bu keltirilgan ko`chirmadagi “Men sizdek tabarruk oqsoqollarga ishonaman va tayanaman iborasiga e`tibor bersak, unda xalqimizning “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Qaring bor-boring bor” kabi keksalarimizning xayotda tutgan o`rinlarini, yoshlar tarbiyasidagi mavqelari, umuman keksa avlodning qadr-qimmatidagi yuksak ifodasini topgan, deya olamiz. Prezidentimiz nigoxlari tushgan, nazar va e`tiborlari bilan qaralgan yuzlab maxallarimiz faoliyatida tub burilishlar yuz berdi. Ular yurtimiz tayanchi, xalqimiz bahtiga, e`zosi va bahtiga aylana boshladi. Darxaqiqat, qadim-qadimdan maxalla tinch bo`lsa-yurt tinch bo`lgan, maxalla osoyishtaligi – el osoyishtaligini ta`minlagan. Yuqorida qayd etganimizdek, maxalla odob, ibrat va namunaviy qadriyatlar go`shasi xisoblangan. Zero, maxalla tinch bo`lsa, el-yurt tinch bo`libgina qolmasdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy, tarbiyaviy ishlar xam maqsadga muvofik bo`ladi. Xa, maxalla moziydan axloqiy, ruxiy tarbiya o`chogi o`rganilgan meyor – mezon o`lchovi bo`lganu, ammo yozilmagan kitobdir^[22].

Ustozimiz Go`zal Erkinovna boshchiligida “Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ularning bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish va kasbga yo`naltirish, o`quvchilar o`rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va keng targ`ib etish” bo`yicha Toshkent shahri Mirzo Ulug`bek tumaniga qarashli “Katta yalang`och

²¹ “Халқ сўзи” -2018 й . 4-сон

²² Малик Мурад “Ўзбек кадриятлари” Тошкент., “Чўлпон” 1995 й.

ota” hamda “Bahor” mahalla fuqarolar yig`inlari qoshida maktab o`quvchilari uchun maxsus to`garaklar tashkil etdik. Ushbu hayrli ishning samarali natijalari mahalla ahlini ham befarq qoldirmadi. Endilikda men yuritayotgan “Tikuvchilik va dizayn” to`garagiga mahallada isti`qomat qilayotgan, uy bekalari va kelinchaklar ham to`garagimizga qatnab, xunar o`rganishmoqda. O`qish bilan birgalikda biz yuritayotgan to`garaklar nazariyani amaliyot bilan mustaxkamlash, o`zimiz ustimizda yanada ko`proq ishlash, xalq orasiga kirib borishimizga keng imkoniyatlar yaratdi. Ushbu loyihani butun Respublikaga joriy qilish niyyatlarimiz bor. Eng ahamiyatli jihati shundaki, ushbu to`garaklarni O`zbekiston Davlat san`at va madaniyat institutining tashabbuskor talabalari olib bormoqda. Mahallalar qoshida kitobxonlar uchun maxsus kichik kutubxonalar ham tashkil etildi. Endilikda ushbu hayrli loyihani butun Respublika bo`ylab keng joriy etish maqsadimiz bor.

Maxalla turmush madaniyati va bu maqsadda amalga oshirilayotgan ommaviy tadbirlarning cheki yo`qligini biz teran tushinib yetdik. Va nixoyat, bu jamiyatimizning asosiy poydevori xisoblanmish Vatan ostonasida ijtimoiy xayotining noyob sarchashmalari, sharq xalqlari tafakkurining noyob maxsuli sifatida unda yashovchi axoli uchun o`z – o`zini boshqaruv tizimiga, eng muximi, turmushning yozilmagan, lekin xayotiy tajribalarda sinalib, insoniylikni sharaflaydigan, qadriyatlarni, ilg`or an`anlarni e`zozlaydigan yurt tinchligi, obodonligi, jamiyat taraqqiyotiga va insonni shakllantirishga xizmat qiladigan nizomlarga amal qilib yashashni majburiyatga aylantirib borgan, shu asosda maxalla asrlar osha axloqiy – ma`naviy tarbiyani og`ishmay amalga oshiruvchi xalq dorilfununi vazifasini o`tab kelmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat`iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas`ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o`zaro qo`llab-

quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo`shishga undamoqda. Biz yoshlarga o`ziga ishongandek ishonayotgan Yurtboshimizning ishonchini tezroq oqlash ishtiyoqi har bir yosh diliga g`ayrat solib, katta shijoat bag`ishlamoqda. Yurt shonini ko`tarish, mustaqillikni mustaxkamlash yo`lidan bizni – O`zbekiston yoshlarini hech qanday kuch orqaga qaytara olmaydi. Chunki Prezidentimiz ta`kidlaganidek, davr bizniki, marra bizniki!

X U L O S A

Yurtimiz mustaqilik tufayli jahonga yuz tutmoqda. Ota-bobolarimizning asriy orzulari ushalmoqda. Bularning barchasi eng ulug`, eng aziz ne`mat – Mustaqillik tufaylidir. Hukumatimiz tomonidan madaniyat va san`at sohasini rivojlantirishga oid Qaror, Konsepsiya, farmonlar, farmoyishlar xujjatlari ishlab chiqilmoqdaki, uning negizida yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson tarbiyasi, insonlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondirishga qartilgan vazifalar turibdi. Bu tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san`at sohasi vakillari zimmasiga katta ma`suliyat yuklanadi.

Aholini ma`naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e`tiqodga ega bo`lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniyat hodimlariga alohida bilim, ko`nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil etishdan asosiy maqsad shuki, milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ`ib qilish va ommalashtirish, o`sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma`naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo`lgan hurmatni uyg`otish va saqlash, ma`naviy-ma`rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o`ziga hosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san`at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an`ana va urf-odatlarining o`zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o`rtasida o`zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun ma`naviy-ma`rifiy ishlar ahamiyatini alohida ta`kidlash maqsadga muvofiqdir.

Insonlar ongida ma`naviy-ma`rifiy, ahloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan tushunchalarini kengaytirish, jamiyatning faol a`zosiga aylanish, Vatanni sevish, tinchlik, mustaqillikning qadriga yetish kabi qadriyatlar – yoshlar ongida madaniyat tushunchasini shakllantirish, san`atga, ijodga mehr uyg`otish orqali amalga oshiriladi. Darhaqiqat, ma`naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligi barchamizga ma`lum. Kelajak poydevori bo`lmish

yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarbroqdir. Chunki Vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo yoshlarimizga, ularning har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishga bog'liqdir". Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, komil inson tarbiyasidagi ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga erishish muhim vazifalardandir.

Ma'naviyat insonni muayyan tartib qoidalari asosida yashashni talab qiladi. Chunki, tartib intizom bor joyda ma'no-mazmun bo'ladi. Hayotni ma'lum tartib asosida tashkil etish zarurati vaqt bilan xisoblashishga, uning qadriga yetishga undaydi. Xattoki, vaqtning qadriga yetish o'zbek xalqimizning maqol va hikmatli so'zlarida ham o'z aksini topgan.

Jumladan: "Vaqtning ketdi, naqding ketdi", "Vaqt odil hakam", "Fursat oqar suv" [23] singari maqol va hikmatlar shu jumlasidandir. Demak, vaqtning inson hayotiga, uning faoliyatiga, dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri g'oyatda kuchli, binobarin, vaqtdan unumli foydalanish, vaqtga qarab, u bilan hisoblashib harakat qilish ma'naviy hayotdan to'g'ri foydalanish deganidir. Uning har bir daqiqasini maqbul ravishda taqsimlash tushuniladi.

Insonning kundalik hayoti qat'iy asosda tashkil etilgandagina bekorchilikka, zerikishga o'rin qolmaydi. Fransuz yozuvchisi Stendal "Bekorchilik – zerikishning onasidir" [24], deya bekorga ta'kidlamagan. Bekorchilik va zerikish odamni turli hil jinoyatlar sodir etishga, ichkilikbozlik, kashandalikka ruju qo'yishga, ma'naviy nopok ishlarga qo'l urishga moyil qilib qo'yadi.

Demak o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, bo'sh vaqt kim uchundir oltindanda qimmat ahamiyat kasb etib, uning ma'naviy yuksalishiga xizmat qilsa, boshqa birov uchun esa, o'z erki va ixtiyorini qo'lidan olib jarlik sari yetaklab ketuvchi falokat.

²³ O'zbek xalq maqollari. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005

²⁴ www.Ziyo.uz

Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o‘zib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o‘rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”. [25] O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo‘lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko‘lamli bo‘lib, o‘z dolzarbligini saqlab qolaveradi. O‘zib kelayotgan yosh avlodni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning kasb-hunar egallashga keng jalb qilish, ularda shaxs sifatida shakillanishiga ko‘maklashish, to‘garaklarga jalb qilish, ularda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo‘llay olish, odob, ahloq, jamiyat taraqqiyoti masalalariga ongli yondoshish, ularni bilimli, ilimli qilish, ma’naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar- madaniy tadbirlarni mahorat bilan tashkil etilishiga asos bo‘la oladi”.

Mazkur tadqiqotning afzalligi shundaki, endilikda mahalla fuqarolar yig‘inlari qoshida tashkil etilayotgan to‘garaklarimizning g‘oyaviy to‘g‘ri tashkil etish orqali yuqori natijalarni qayd etish, insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va unumli o‘tkazishga, aniq maqsadlarga yo‘naltirgan holda maqsadli harakatlarni davom ettirishga qaratilganligidir.

Respublikamiz Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish

²⁵ Ислом ҳамкорлик ташкилоти ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимида сўзлаган нуткидан

to`g`risida”gi Qarorida “Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko`payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, oila, mahalla va ta`lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g`oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo`shilib qolish, milliy qadriyatlarga e`tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ`ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani” haqida gapirib, uni yaxshilashga, takomillashtirishga oid taklif, tavsiyalarni berib quyidagilarni aytadi:

“Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g`oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorism, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g`oyaviy kurash olib borish”; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to`squinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug`-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e`tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; yoshlarda sog`lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko`nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g`oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish”. O`zbekning o`zligiga sadoqati O`zbekistonni XXI asrning ma`naviy poytaxtga aylantiradi.

GLOSSARIY

Konsepsiya –(lotincha – conception – to`plash, birlashtirish) qarashlar va fikrlar yo`nalishi tizimi.

Qaror – (arabcha – to`xtam, hukm, xulosa)

Farmoyish – (forscha – buyruq, buyruq berish) biror chora-tadbir yoki ishning bajarilishi haqida beriladigan buyruq, topshiriq.

Madaniyat – (arabcha-sivilizatsiya) Jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy hayotida qo`lga kiritgan yutuqlari majmui.

Ommaviy – Ommaviy xususiyatga egalik

Umumbashariy – Butun insoniyatga, odamzodga oid ma`nosini anglatadi.

Umummilliy – Butunicha millatga, shu millatdagi kishilarning barchasiga taalluqli, millat uchun umumiy.

Umumdavlat – Davlat miqiyosidagi, davlat uchun umumiy.

Kosmopolitizm (yunoncha “kosmopolites” – dunyo fuqorosi ma`nosini bildiradi) - butun yer yuzini yagona vatan deb, shaxsning o`z tug`ilgan yurtiga, xalqiga, davlatiga bo`lgan mehri, sadoqati, himoyatini siyqalashtiruvchi oqim.

Bayram - turkcha, xursandchilik, shodiyona ma`nolarini beradi

Kompozitsiya – lot. (Bir butun, yaxlit ma`nosini anglatadi)- asar tuzilishi.

Innovatsiya – (inglizcha – innovation – kiritilgan yangilik, ixtiro) yangilik.

Geosiyosiy – Geosiyosatga, geografik siyosatga asoslangan, aloqador.

Ekstremizm – (lotincha – extremus – eng oxirgi, o`ta ketgan, ashaddiy) Siyosatda va mafkurada ashaddiy, favqulodda usullar bilan yo`l tutishga, keskin choralar ko`rishga tarafdorlik.

To`garak – kishilarning birgalikda ishlash, mashg`ulotlar o`tkazish, mashq qilish, bilim, hunar olish singari umumiy maqsadlar bilan tuzilgan guruh yoki uyushma.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi-T.: “O`zbekiston”-2017-y.
2. O`zbekiston Respublikasi Qonunlari
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari
 - 3.1.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida»gi 2017 yil 14 fevraldagi F-4849 Farmoni.
 - 3.2.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbek milliy maqom san`atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son Qarori.
 - 3.3.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 2018 yil 5 apreldagi Qarori.
 - 3.4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalqaro maqom san`ati anjumanini o`tkazish to`g`risida»gi 2018 yil 6 apreldagi Qarori.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari
 - 4.1. Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorida bu
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari
 - 5.1. SH.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbolloriga bag`ishlangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi, “Xalq so`zi”, 2017 yil 16 yanvar.
 - 5.2.SH.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O`zbekiston”, 2017.

5.3.SH.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent. "O`zbekiston", 2017.

5.4.SH.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda quramiz. Toshkent. "O`zbekiston", 2017 yil

5.5.SH.Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, "Xalq so'zi", 2017 yil 4 avgust.

5.6. I.Karimov.Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent. "Ma'naviyat", 2011.

5.7. I.Karimov. Milliy mafkura haqida . – T., 2000.

5.8. I.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T., 1998.

5.9. I.Karimov. O`zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O`zbekiston, 1997.

6. O`quv qo`llanmalar

6.1. Ro'zmetov A. "Madaniyatda menejment va iqtisodiyot asoslari" – T.:O'qituvchi. 1988-y. 40-b

6.2. Aliyev A. "Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat" –T.:2006-y, 14-15b.

6.3. Abdurahmonov A. "zsaodatga eltuvchi bilim" –T.:2003

6.4. Balloffet P., Courvoiser F. "The opportunities and risks of edutainment" – Internationa Journal of Arts management, 2014, pp.4-18

6.5. Gilmore A., Rentschler R. "Changes in museum management" –Journal of management development, 2002, pp. 745-760

7. Internet saytlari

7.1. www.bilim.uz.

7.2. www.pedagog.uz

7.3. www.ziyoNet.uz

- 7.4. www.fikr.uz
- 7.5. www.theguardian.com
- 7.6. www.museumplanner.org
- 7.7. www.bigsea.com
- 7.8. www.gov.uz - Hukumat sayti.
- 7.9. www.press-service.uz - Prezident sayti.
- 7.10. www.ziyo.edu.uz - Vazirlik sayti.